

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**USMANOVA SEVARA SULTANOVNA**

**O‘ZBEK VA INGLIZ TARIXIY ROMANLARIDA MALIKA OBRAZINING  
QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor (DSc) of sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) наук**

**Usmanova Sevara Sultanovna**

O‘zbek va ingliz tarixiy romanlarida malika obrazining qiyosiy-tipologik tahlili.....3

**Usmanova Sevara Sultanovna**

Comparative typological analysis of the image of the princess in Uzbek and English historical novels.....37

**Усманова Севара Султановна**

Сравнительно-типологический анализ образа принцессы в узбекских и английских исторических романах.....69

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....74

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**USMANOVA SEVARA SULTANOVNA**

**O‘ZBEK VA INGLIZ TARIXIY ROMANLARIDA MALIKA OBRAZINING**  
**QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya**  
**AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Fil425 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Fan doktori (DSc)dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus,(rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasining (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (ww.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Kasimov Abdugapir Abdikarimovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Vositov Valijon Abduvaxobovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Xajieva Feruza Melsovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**To'rayeva Bahor Baxriddinovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat chet tillari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 23 » oktabr soat 8<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (589 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 9 » oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil « 9 » oktabr dagi 49 raqamli reestr bayonnomasi)



**G.Z. Rozikova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**M.T. Abdupattoyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**A.G. Sabirdinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida tarixiy asarlarni boshqa xalqlar adabiyoti namunalari bilan o‘zaro qiyosiy tahlil qilish amaliyotiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Buning natijasida, turli mintaqalarda yaratilgan tarixiy mavzudagi asarlar poetikasini qiyosiy planda tadqiq etish, xususan, ijodkorlarning uslubi, milliy ruhiyatni ifodalash mahorati, til xususiyatlari, badiiy obraz yaratish imkoniyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu borada Sharq va G‘arb yozuvchilarining tarixiy romanlarini tadqiq etish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida G‘arb va Sharq yozuvchilari ijodi misolida tarixiy romanchilik an‘anasini tadqiq etish, xususan, alohida tanlab olingan ijodkor merosiga tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima, an‘anaviylik munosabati, har bir yozuvchining shaxsiy uslubidan kelib chiqib baho berish, ikki xil muhitning tarixiy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu jihatdan mamlakatlarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy tarixida muhim o‘rin tutgan shaxslarni, xususan, malikalar obrazining tarixiy romanlardagi talqinini qiyosiy planda o‘rganish, obraz yaratishdagi tasviriy vositalar o‘rni va rolini belgilash ilmiy-nazariy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda jahon adabiyotini o‘rganish, ularni keng miqyosda targ‘ib qilish, ilmiy tadqiqot ishlarining obyekt sifatida tahlilga tortish va tadqiq etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bugungi kunda yurtimizda “dunyo adabiyotining bebaho mulki bo‘lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo‘yicha o‘ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida ta’kidlash lozim”<sup>1</sup>. Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yishda dunyo adabiyotshunoslarining tarixiy roman poetikasi bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlarini umumlashtirish, o‘zbek va ingliz tarixiy romanlarida malika obrazining qiyosiy-tipologik tahlili, muayyan ijodkorlarning yirik epik asarlari badiiyati tadqiqi orqali tarixiy ayollar shaxsi hamda badiiy obrazi uyg‘unligi, ayollarga xos xarakter ruhiyatini tasvirlashdagi o‘ziga xos yondashuvlarni ilmiy asoslash muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Dissertatsiya tadqiqoti dunyo adabiyotida xususan, o‘zbek va ingliz adabiyotida tarixiy shaxslar, saroy malikalari obrazining yoritilishidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlarni belgilashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-san'at>. ( murojaat sanasi: 12.10.2024).

dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari, 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida so‘zlagan nutqi va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Sharq va G‘arb adabiyoti tarixini, xususan tarixiy romanni o‘rganishga oid tadqiqotlar jahonning qator yetakchi ilmiy maskanlarida amalga oshirilgan. Mavzu tarix fani bilan chambarchas aloqadorligi bois tadqiqotlarning aksariyati tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima nuqtayi nazaridan amalga oshirilganligini kuzatish mumkin. Mazkur muammo New York University (AQSH), University of Harvard, University of British Columbia (Kanada), Academy of Korean Studies Grant (Koreya Respublikasi), Pekin University, Beijing (Xitoy), Dzyoti universiteti (Yaponiya), Hoji Beyrem Universiteti, Artvin Çoruh Universiteti (Turkiya), Rossiya Fanlar Akademiyasi rus adabiyoti instituti, Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg universiteti, Tver davlat universiteti, Buryat davlat universiteti, Orenburg davlat universiteti (Rossiya), Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti (Qoraqalpog‘iston), O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida keng ko‘lamda tadqiq etilmoqda.

AQSH olimlari Sharq madaniyati va saroy hayotiga katta qiziqish bilan qaraganlar. Tarixchi va sayyoh Rui Gonsales de Klavixoning yozma manbalarida ham aynan malikalar ta‘rifiga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarga Buyuk Britaniyaning Kembridj universitetida Aleksandra Valsham (Kembridj Universiteti), Margarat Homans Yale universiteti (Yale University) zamonaviy tarixshunoslik (history modern) kesimida o‘rgangan bo‘lsalar, Luis Montrous, asosan, suratlar va yozma manbalar asosida tadqiqotlar olib borgan (Kaliforniya universiteti), Luis Montrous Elizabetta I hayotiga bag‘ishlangan asarlarni adabiyotshunoslik bo‘yicha tadqiq etgan. Turk adabiyotshunos va tarixchi olimasi Xayriniso Alan Toir temuriy malika Gavharshodbeginning tarixiy va adabiy asarlardagi qiyofasi yuzasidan izlanishlar olib borgan.

O‘zbek nasri bo‘yicha Georg Xazai, Andrash Rona kabi olimlar ham tadqiqot olib borganlar (Vengriya). T.Komarovskaya esa AQSH tarixiy romanlari poetikasi bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borgan. Moskva davlat universiteti (A.Kudryavseva, Y.Boroshkovskaya, P.Makarova), Rossiya davlat pedagogika universiteti (Ye.Matyushkina), Xo‘jand davlat universiteti (Z.Ulmasova), Bishkek davlat universiteti (A.Abdiramanova), O‘zbekiston Milliy universiteti (Ye.Kaminskaya), Toshkent davlat pedagogika universiteti (F.Ikromxonova),

---

<sup>2</sup> <https://www.grafiati.com/en/literature-selections/lyrics-literature/dissertation/>, <http://www.oxfordhaqngfbooks.com>; [www.atibook.ir](http://www.atibook.ir); <http://books.mgu.ru>; [www.dissercat.com](http://www.dissercat.com), [www.royallib.ru](http://www.royallib.ru), <https://www.msu.ru/search.html>, <https://www.herzen.spb.ru> <https://www.laurindajones.com.au/>, <https://www.hup.harvard.edu>, <https://www.uni-heidelberg.de>, [www.jstor.org](http://www.jstor.org), <https://en.unistra.fr/>, <https://pspu.ru/university>, <https://spbu.ru/> <http://pushkinskiydom.ru> kabi saytlardagi ilmiy asar, avtoreferat va ma‘lumotlar asosida tayyorlandi. ( murojaat sanasi: 19.11.2024).

Qoraqalpoq davlat universiteti (P.Nurjanov), Buxoro davlat universiteti (G'.Murodov) olimlarining tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Jahon adabiyotshunosligida tarixiy romanlar va ularning nazariy asoslari, taraqqiyot bosqichlari, tarixiy shaxslar va ularga muallif munosabati muammolarini tadqiq etish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda izlanishlar olib borilmoqda: tarixiy romanlarda tarixiy shaxslar obraziga xos xususiyatlarni aniqlash, tarixiy shaxs va obraz uyg'unligini asoslash, tarixiy romanlarda umuminsoniy g'oyalar va milliy ruhiyat talqinining badiiy ifodasini dalililash.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi** Jahon adabiyotshunosligida roman janri muammolari borasida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. A.N.Veselovskiy, E.E.Bertels, V.Jirmunskiy, N.Konrad, D.Dyurishin, A.Dima, I.Neupokoyeva, T.E.Komarovskaya, V.E.Xalizev, M.B.Xrapchenko, A.A.Potebnya, M.M.Baxtin, A.G.Pushkarev, Y.V.Pakina kabi xorijlik olimlarning ilmiy asarlarida romanlarda tarixiy shaxs va badiiy tafakkur uyg'unligi, tarixiy-badiiy obraz, shaxs ichki dunyosi tasvirlanishining badiiy talqini, inson ruhiyatini tasvirlash usullari haqidagi nazariy qarashlar e'tiborga molikdir<sup>3</sup>.

O'zbek adabiyotshunosligida tarixiy romanchilik, uning muhim g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida I.Sulton, S.Mamajonov, M.Qo'shjonov, B.Nazarov, U.Normatov, U.Nosirov, N.Shukurov, A.Rahimov, A.Rasulov, Y.Solijonov, X.Boltaboyev, A.Abrorov, X.Karimov, B.Karimov, D.Quronov kabi olimlarning ishlarida muhim nazariy masalalar tadqiq qilingan bo'lsa<sup>4</sup>, A.Kattabekov, G'aybulla as Salom, I.Samandarov, G'.Murodov, Sh.Isayeva, A.To'ychiyev, Q.Yo'lchiyev, B.To'rayeva, A.Nosirov, Z.Rahimov, G.Yunusova, F.Ikromxonova, N.Otajon, N.Matmusayeva kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida adabiy jarayonda roman, xususan, tarixiy romanga xos badiiy-poetik xususiyatlar jahon ilmiy-

---

<sup>3</sup> Веселовский А.Н. Западное влияние в новой русской литературе. Историко-сравнительные очерки. – М.: Русское т-во печатного и издательского дела, 1896; <https://www.livelib.ru/book/1000022833-zapadnoe-vliyanie-v-novoj-russkoj-literature-istorikosravnitelnye-ocherki-aleksej-veselovskij>; Бертельс Е.Э. Роман об Александре и его главные верски на Востоке. – М.: Академии наук, 1948; Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. – Л.: Наука, 1979; Конрад Н.И. Избранные труды. История. – М.: Наука, 1974; Конрад Н.И. Запад и Восток. Статьи. – М.: Наука, 1972; Дюринин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: Прогресс, 1979; Дима А. Принципы сравнительного литературоведения. – М.: Прогресс, 1977; Неупокоева И.Г. История всемирной литературы. Проблемы системного и сравнительного анализа. – М.: Наука, 1976; Комаровская Т.Е. Проблемы поэтики исторического романа США XX века: Автореф. дисс... д-ра. филол. наук. – М.: МПУ, 1994; Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Писатель, 1975; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975; Пушкир'ев А.Г. Типология и поэтика женской прозы: Автореф. дисс... филол. канд. наук. – М., 2007; Пакина Е.В. Типология женских образов в романах В. Скотта: автореф. дисс. ... канд.филол. наук. – Нижний Новгород, 2004.

<sup>4</sup> Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986; Мамажонов С. Наср, давр, кахрамон. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983; Норматов У. Насримиз анъаналари. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978; Султонова М. Ёзувчи услубига доир. – Тошкент: Фан, 1973; Носиров У. Ижодкор, шахс, бадий услуб, автор образи. – Тошкент: Фан, 1981; Шукуров Н. Услублар ва жанрлар. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973; Абборов А., Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000; Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2016; Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2002; Мирзаев И. Бадий услуб сеҳри. – Самарканд, 2000; Каримов Х. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси: Филол. фан номз... дисс. – Тошкент, 1995; Қўчқорова М. Бадий сўз ва рухият манзаралари. – Тошкент: Мухаррир, 2011; Холдорев Д. Ижод моҳияти – услуб ҳосияти. – Тошкент: Тугон zamin ziyo, 2017.

nazariy tafakkuri mezonlari asosida yoritib berilgan<sup>5</sup>. Keyingi yillarda X.Lutfiddinova, M.O'razbayeva, N.Ibragimova, Y.Eshmatova, N.Muxammedova, X.Muxammedova, N.Ashurovalarning ilmiy izlanishlarida ayollar nasri; romanlarda ayol obrazi tasviri, ayollar psixologiyasining badiiy talqini, badiiy asarlarda ayol xarakteri tipologiyasi kabi bir qator masalalar keng ko'lamda o'rganilgan<sup>6</sup>.

Qiyosiy adabiyotshunoslikning ma'lum qismini tashkil etgan tarixiy romanlar, xususan, ingliz va o'zbek nasrida malikalar obrazining tipologik tahlili masalasi bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar xorijiy olimlarning diqqat-e'tiborini tortgan. Angliya malikalari bilan bog'liq tadqiqotlar Aleksandra Valsham, Margaret Homans, Luis Montrous, Liza Bens, Sara Dredj, Hiser Maria Parson kabi olimlar tomonidan olib borilgan<sup>7</sup>.

Mavzuga doir tarixiy ma'lumotlar, asosan, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' us-sa'dayin va majma' ul-bahrayin", Ibn Arabshohning "Ajoyib al-makdur fi tarixi Taymur", Rui Gonsales de Klavixoning "Samarqanddagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406)", Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad Havofiyning "Mujmali Fasihiy (Fasih

---

<sup>5</sup> Рахимов А. Ўзбек романи поэтикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60 – 80 йиллар): Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёти тамойиллари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2003; Самандаров И. Ўзбек тарихий романларида тарихийлик: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1992; Исаева Ш. Ўзбек тарихий романларида характер рухиятини тасвирлаш усуллари: Филол. фан. номз. ... дисс.автореф. – Тошкент, 2001; Юсупова Г. Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва теурийлар образининг бадий талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005; Носиров А. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадий талқини ("Юлдузли тунлар" романи мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999; Рахимов З. Одил Ёқубовнинг "Кўхна дунё" романи поэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2000; Исаева Ш. Ўзбек тарихий романларида характер рухиятини тасвирлаш усуллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000; Тўйчиев А. Ўзбек романларида макон ва замон. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2009; Ikromxonova F. O'zbek va AQSH inglizzabon nasri poetikasi (obraz, kompozitsiya): Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. – Toshkent, 2021; G'aybulla as Salom, N.Otajon. Jahongashta Boburnoma. – Toshkent: Xalq merosi, 1997; Yo'lchiyev Q. Nurali Qobilning prozaik mahorati. – Toshkent: Ma'rifat bitiklari, 2021; To'laganova S. Momokalonimiz bo'lgan Kleopatra, taxtga borgan Navoiy va Iblisga isyon qilgan yozuvchi...<https://oyina.uz/uz/article/1644>; Matmusayeva N.M. Hozirgi o'zbek romanlarida ayol shaxsi va uning badiiy talqini: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD)... diss. – Namangan, 2024.

<sup>6</sup> Мухаммедова Х.Э. Чарльз Диккенс асарларида аёл характери типологияси: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Мухаммедова Н. Маргарэт Дрэббл асарларида аёл образи ва унинг ижтимоий-эстетик талқини: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. – Тошкент, 2019; Эшматова Ю.Б. Истиклол даври ўзбек кинесчилигида аёл рухиятининг бадий талқини: Филол. фан. б. фалс. док.(PhD)... дисс. – Тошкент, 2020; Ўразбаева М.Қ. Сўнгги давр ўзбек романчилигида аёл образи ва унинг киёсий-типологик талқини: Филол. фан. б. фалс. док.(PhD)... дисс. – Тошкент, 2021; Ибрагимова Н.М. Ҳозирги рус ва ўзбек адабиётида аёл насрининг поэтикаси: Филол. фан. б. фалс. док.(PhD)... дисс. – Тошкент, 2022; Лутфиддинова Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи ("Ўтган кунлар" ва "Кеча ва кундуз" романлари мисолида): Филол. фан. б. фалс. док.(PhD)... дисс. – Тошкент, 2020; Ашурова Н. Замонавий ўзбек адабалари романларида аёл образи тасвири (Зулфия Куролбой кизи, Рисолат Ҳайдарова, Жамила Эргашева ижоди мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2024.

<sup>7</sup> Walsham A. The Reformation of the Generations: Youth, Age and Religious Change in England c. 1500-1700, Transactions of the Royal Historical Society 21, 2011. – P.92-121; Royal Representations: Queen Victoria and British Culture. – Chicago: Margaret Homans University of Chicago Press, 1998. – P. 1837-1876; The Subject of Elizabetta: Authority, Gender, and Representation. – Chicago: Louis Montrose University of Chicago Press, 2006; Parsons, Heather Marie. Configured Visibility in Elizabetta I as Europa: The Queen's Represented Body in Context of the Geographical Imagination. Fogler Library, University of Maine, 2006. <http://www.library.umaine.edu/theses/pdf/ParsonsHM2006.pdf>. Dredge, Sarah. "Accommodating feminism: Victorian fiction and the nineteenth-century women's movement." Thesis, McGill University, 2000. [http://digitool.Library.McGill.CA: 80/R/?func=dbin-jump-full&object\\_id=36917](http://digitool.Library.McGill.CA: 80/R/?func=dbin-jump-full&object_id=36917).

to‘plami)”, Xondamirning “Makorim ul-axloq” va Alisher Navoiyning “Majolis-un-nafois” tazkirasida, Boburning “Boburnoma”<sup>8</sup> asarlarida keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarda muammoga turli aspektdan yondashilgan va tarixiy romanlarning poetik xususiyatlari doirasida izlanishlar amalga oshirilgan. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, hozirda o‘zbek va ingliz tarixiy romanlarida malika obrazining qiyosiy-tipologik tahlili muammosi monografik planda yaxlit holda tadqiq etilishi zarurdir.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb yo‘nalishlari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek va ingliz tarixiy romanlarida malikalar obrazini yaratishdagi tasvir tamoyillarini belgilash hamda milliy ruhiyat masalalarining o‘zaro uyg‘unligi asosida Sharq va G‘arb adabiyotidagi farqli jihatlarni aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek va ingliz tarixiy romanlari genezisi, taraqqiyot bosqichlari, tarixiy shaxslar va malikalar obrazining genetik ildizlarini aniqlash;

o‘zbek va ingliz tarixiy romanlarida moziy haqiqati va badiiy to‘qimani qiyosiy tahlil etish, tarixiy romanlarda saroy xonimlari shaxsiyati va taqdiri talqinlari hamda malika obrazini yaratishda yozuvchining badiiy mahorati yoritish; o‘zbek va ingliz tarixiy romanlarida tarixiy shaxs va obraz uyg‘unligining qiyosiy tadqiq etish;

o‘zbek va ingliz tarixiy romanlarida umuminsoniy g‘oyalar va milliy ruhiyat talqini hamda malika obrazida milliy dunyoqarashning badiiy ifodasini dalillash;

o‘zbek va ingliz tarixiy romanlarida badiiy psixologizm muammosi va malika xarakterini yaratishda badiiy psixologizmning o‘rnini yoritish;

tarixiy romanlarning badiiy-psixologik talqinida shaxs va jamiyat munosabatlari ifodasi hamda ayol ruhiyati tasvirida ijodiy individuallikni aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o‘zbek adabiyotidan Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi”, Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim”, “Gavharshodbegim”, ingliz adabiyotidan Filippa Gregoriyning “Bokira malikaning muhabbati”, “Boleyn sulolasining so‘nggi vakili” (“The Virgin’s lover”, “The Other Boleyn girl”), Deyzi Gudvinning “Viktoriya” (“Victoria”) kabi tarixiy romanlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** o‘zbek va ingliz tarixiy romanlaridagi malikalar obrazini tarixiy haqiqat va badiiy ifoda hamda milliy-psixologik o‘ziga xoslik muammolari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tarixiy-qiyosiy, tarixiy-biografik, tasniflash, qiyosiy-tipologik hamda psixologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

---

<sup>8</sup> Голубов Г.Н. Улуғбек. – Тошкент: Ёш гвардия, 1962; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Шарқ, 1997; Низомиддин Шомий. Зарафшон. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996; Самарқандий А. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайин. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008; Аҳмедов Б., Аминов А. Амир Темур ўғитлари – Тошкент: Навруз, 1992; Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-макдур фи тарихи Таймур. – Тошкент: Меҳнат, 1992; Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқанддаги Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар). – Тошкент: Ўзбекистон, 2010; Фасих Аҳмад Ҳавофий Маджмал-и Фасихи (Фасих тўплами). – Тошкент: Фан, 2018; Хондамир, Ғиёсиддин. Макорим ул-ахлоқ. Нашрга тайёрловчи Ғаниева С. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015; Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. – Тошкент: Фан, 1979; Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент, 1993.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

o'zbek va ingliz tarixiy romanlarining shakllanish bosqichlari, tadrijiy takomilini o'rganish orqali roman poetikasida tarixiy shaxs obrazining badiiy tadriji aniqlangan;

tarixiy romanlarga xos moziy haqiqati va badiiy to'qima uyg'unligi malika biografiyasiga ijodkor munosabati hamda saroy xonimlari shaxsiyati va taqdiri badiiy talqinlari asosida dalillangan;

Sharq va G'arbda malikalar nafaqat hukmdorlar rafiqasi yoki shahzodalar onasi, balki saroy hamda hukumat ishlarida ham maslakdosh sifatida namoyon bo'lishi, Yevropa malikalari rasman taxt vorisi sifatida faoliyat olib borishi, Sharqda esa davlat boshqaruvi hukmdorlar tomonidan amalga oshirilishi, tarixiy romanlar syujetida malikalarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati haqidagi tarixiy haqiqatlar adiblar estetik ideali asosida badiiy to'qimalar orqali ochib berilgan;

o'zbek va ingliz yozuvchilarining individual uslubi orqali Bibixonim, Gavharshodbegim, Elizabetta I, Viktoriya obrazlari tasviri vositasida milliy xarakter yaratishdagi badiiy psixologizmdan foydalanish mahorati isbotlangan;

o'zbek va ingliz yozuvchilarining romanchilikdagi an'anaviylik va novatorligi, ularning individual mahorati hamda poetik uslubini tadqiq etish orqali tarixiy romanlarning nasr taraqqiyotidagi o'rni asoslangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'zbek va ingliz tarixiy romanlarida malika obrazining qiyosiy-tipologik tahlilini tadqiq etish doirasida chiqarilgan nazariy xulosalar o'zbek va ingliz adabiyotshunosligining tarixiy roman janri poetikasini ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyishi, darslik hamda o'quv qo'llanmalarining takomillashuviga hissa qo'shishi asoslangan;

o'zbek va ingliz tarixiy romanlari genezisi, taraqqiyot bosqichlari, tarixiy shaxslar va malikalar obrazining genetik ildizlari ochib berilgan;

tarixiy haqiqat va badiiy to'qima, ularga yozuvchi munosabati, tarixiy asarlarda saroy ayollari taqdiri bilan bog'liq voqealarning badiiy shakldagi ifodasi yozuvchi munosabati asosida yoritilgan;

o'zbek va ingliz tarixiy romanlari tahlili asosida malika obraziga xos milliy ruhiyat manzaralari tasviri milliylikning g'oyaviy-badiiy talqinlari asosida oydinlashtirilgan;

tarixiy romanlar asosida adabiy aloqalarning o'zaro ta'siri, an'anaviy obrazlarning o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy aspektda ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tanlab olingan tahliliy materiallar va chiqarilgan xulosalar tarixiy-qiyosiy, tarixiy-biografik, tasniflash, qiyosiy-tipologik, psixologik tahlil kabi usullar bilan ilmiy asoslanganligi, ishonchli nazariy manbalar va lug'atlarga tayanilganligi va muammoning aniq qo'yilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, o'zbek va ingliz tarixiy romanlari shakli-mazmuniy yangilanishlari, ifoda imkoniyatlari tahlil etilganligi tarixiy romanlardagi malika obrazining poetik xususiyatlari yuzasidan mavjud ma'lumotlarni boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ilgari surilgan konseptual g'oyalar qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarni takomillashtiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarixiy roman poetikasi, qiyosiy adabiyotshunoslik, badiiy mahorat muammolari bo'yicha kelgusida yaratiladigan tadqiqotlarga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Mazkur tadqiqot xulosalaridan oliy o'quv yurtlarida "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Jahon adabiyoti", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Badiiy tahlil asoslari" fanlarini o'qitishda magistr hamda bakalavrlar uchun maxsus kurslar ishlab chiqish va tashkil etishda, dissertatsiya va monografiyalarni tayyorlashda, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbek va ingliz tarixiy romanlarida malika obrazining qiyosiy-tipologik tahlili tadqiqi asosida olingan ilmiy natijalardan:

o'zbek va ingliz tarixiy romanlarining shakllanish bosqichlari, tadrijiy takomilini o'rganish orqali roman poetikasiga tarixiy shaxs obraziga xos xususiyatlari va ularning badiiy tadrijiga oid xulosalardan F3-2019081773-raqamli "Musiq va san'at o'quv muassasalari uchun "Bolalar raqslari" fanidan interaktiv o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish" mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 20-martdagi 1/04-202-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy qimmatini oshgan;

tarixiy romanlarga xos moziy haqiqati va badiiy to'qimaning qiyosiy tahlili malika biografiasiga ijodkor munosabati hamda saroy xonimlari shaxsiyati va taqdiri badiiy talqinlari haqidagi xulosalardan PF-201912258 raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tili (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 7-apreldagi 01/4-1288-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-amaliy ahamiyati oshishiga erishilgan;

o'zbek va ingliz romanlaridagi tarixiy shaxs obraziga xos xususiyatlar malikalar tasvirining farqli va mushtarak jihatlari hamda asarlardagi umuminsoniy g'oya va milliy ruhiyat tasviri haqidagi ilmiy xulosalardan "English Access Microscholarship program" xalqaro loyihasida foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2025-yil 5-martdagi 04-1996-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy mukammallashuviga erishilgan;

o'zbek va ingliz yozuvchilarining tarixiy romanlarda milliy xarakter yaratishda badiiy psixologizmdan foydalanish mahorati, Bibixonim, Gavharshodbegim, Elizabetta I, Viktoriya obrazlarini yaratishda ijodkorlarning individual uslubi asosidagi xulosalaridan "Developing British and American literature" darsligini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2022-yil 30-dekabr 429-sonli buyrug'i). Natijada darslik ilmiy-nazariy materiallar bilan boyitilgan;

o'zbek va ingliz yozuvchilarining romanlaridagi an'ana va novatorlik, ularning individual mahorati va poetik uslubini tadqiq etish orqali tarixiy romanlarning nasr taraqqiyotidagi o'rnini belgilash haqidagi xulosalardan Amerika Qo'shma Shtatlarining O'zbekistondagi elchixonasining "Mindonobod Satellite Access Microscholarship Program" S-U2800-21-GR-3126 xalqaro amaliy loyihasida foydalanilgan (Farg'ona tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi

62-umumiy o'rta ta'lim maktabining 2025-yil 3-martdagi 4-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha ilmiy-amaliy materiallar bilan boyitilgan;

tarixiy romanlarning badiiy-psixologik talqinida shaxs va jamiyat munosabatlari ifodasi hamda ayol ruhiyati tasvirida ijodiy individuallikni aniqlashga oid ilmiy xulosalardan "O'zbekiston" teleradiokanalida 2024-2025-yillarda efirga uzatilgan "Adabiy jarayon", "Bedorlik", "Jahon adabiyoti", "O'zbek nasri" nomli dasturlarning ssenariylarini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2025-yil 18-fevraldagi 05-09-198-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuvlarning xalqchilligi ortgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 7 ta xalqaro konferensiyada aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 23 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 4 asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi 250 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tarixiy roman genezisi va taraqqiyot bosqichlari**" deb nomlangan va uning birinchi faslida "Tarixiy roman va uni o'rganishning nazariy asoslari" tadqiq etilgan. Jahon adabiyotshunosligida roman janri, xususan, tarixiy roman poetikasi, tarixiy taraqqiyoti, roman janrining umumiy qonuniyatlar asosida rivojlanishidagi hissasi, tarixiy asar syujeti va kompozitsiyasi, shakl hamda mazmun birligi, mavzu-g'oya hamohangligi, tarixiy haqiqat va badiiy to'qima mutanosibligi, tarixiy romanda badiiy til kabi masalalar atroflicha tadqiq etilgan. O'zbek adabiyotshunosligi ham bu masalada yetarlicha tajribaga egaligi ko'rsatib o'tilgan.

Roman garchi uning ildizlari ertaroq hikoya an'alariga borib taqalsa ham, XVIII asrda alohida adabiy shakl sifatida paydo bo'ldi. Ayan Yot o'zining "The Rise of the Novel" (1957) asarida ta'kidlashicha, roman avvalgi hikoya shakllaridan o'zining "formal realizmi" bilan farq qilgan. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, "romanning realizmi u taqdim etadigan hayotning turida emas, balki uni taqdim etish usulida namoyon bo'ladi"<sup>9</sup>. Tarixiy roman paydo bo'lishi hamda

---

<sup>9</sup> Watt I. The Rise of the Novel. – 1<sup>st</sup> Edition. USA, 2001-P.339.ISBN978520230699. <https://www.ucpress.edu/books/the-rise-of-the-novel-updated-edition/paper>. ( murojaat sanasi: 22.12.2022).

shakllanishi masalasi ilm olamida ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. Igltonning “Literary Theory” asarida romanni ma’lum tarixiy sharoitlarda paydo bo‘lgan va rivojlangan adabiy ifoda shakli sifatida ko‘rib chiqadi. Iglton fikriga ko‘ra, roman XVIII-XIX asrlarda kapitalizm va o‘rta sinf ko‘tarilishi bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan va shakllangan.

O‘tmish davr adabiyotshunos olimlarining aksariyati tarixiy romanning paydo bo‘lishini yangicha, o‘ziga xos hodisa bilan bog‘lashsa, fransuz adabiyotshunosligi vakillari bu fikrni ma’qullamaydilar. Ular yozuvchi faqat o‘zi guvoh bo‘lgan voqelikni haqiqat bilan tasvirlashi mumkinligini, aks holda bu tarixiy asar emas, balki uydurmalar majmuasi bo‘lishini ta’kidlaydilar. Keyinchalik ilmiy bahslarda tarixiy romanni alohida janrga ajratish zarurligi haqida munozaralar boshlandi. Bu borada adabiyotshunos G.Lukach realist yozuvchilar ijodini tahlil qilar ekan, tarixiy roman negizida uni ijtimoiy romanlardan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlar yo‘q, degan xulosaga keladi.<sup>10</sup> Uning ta’kidlashicha, tarixiy roman badiiy adabiyot va tarixiy haqiqat o‘rtasidagi munosabatlar haqida o‘ziga xos nazariy savollarni keltirib chiqaradi. G.Lukach o‘zining “The Historical Novel” (1937) asarida haqiqiy tarixiy romanning maqsadi shunchaki tarixiy voqealarni taqdim etish emas, balki odamlarni tarixiy haqiqatda o‘ylaganidek, his qilgani va harakat qilganidek ijtimoiy va insoniy motivlarni uyg‘otishdir, deb ta’kidlaydi. Fasl davomida professor V.D.Oskotskiy, Jerome de Grut, T.E.Komarovskaya kabilarning tarixiy romanlarga xos xususiyatlar tasnifi berilgan.

Dunyo adabiyotshunosligida tarixiy romanga turlicha ta’rif beriladi. Professor F.B.Beshukova “Tarixiy roman iborasi keng tarqalganiga qaramay uni adabiy termin deb bo‘lmaydi, unda tuzilishiga ko‘ra umumiy tasavvurni o‘z ichiga olgan janr strukturasi mavjud emas”<sup>11</sup>, deya e’tirof etadi. Tarixiy roman o‘tmishda bo‘lgan voqealar fonida yuzaga kelgan. Tarixiy roman genezisi xususida rus olimi M.Baxtin ushbu janrning ilk shakllari xalq og‘zaki ijodida yuzaga kelgan, deb hisoblaydi. Hegel romanning shakllanishini epos bilan bog‘lagan bo‘lsa, V.Kojinov XV asrda Germaniyada yaratilgan shvanklarning xalq kitobidan boshlangan, deb izohlaydi.

Yevropa adabiyotida tarixiy asarlar shakllanishi eramizdan oldingi V-III asrdan deb belgilansa, o‘zbek adabiyotida ham tarixiy asarlar genezisi eramizdan oldingi davrga borib taqaladi. Jahon tarixiy romanchiligi taraqqiyotida tarixiy romanning asosan ikki shakli yuzaga kelgan: 1. An’anaviy tarixiy roman; 2. Tarixiy-biografik roman. O‘zbek tarixiy romanlariga professorlar N.Rahmonov, Z.Rahimovlar tomonidan tasnif berilgan. Zero, jahon adabiyotshunosligi tajribasidan ma’lum bo‘ladiki, tarixiy mavzular rivojida tarixiy roman katta rol o‘ynagan va o‘ynamoqda. Tarixiy-badiiy asarlar genezisi uzoq tarixga ega bo‘lib, bunday turkumga kiruvchi asarlar bugungi ko‘rinishga kelgunga qadar keng va teran evrilishni boshdan o‘tkazgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, tarixiy roman genezisida badiiy adabiyot va tarixnavislik sohalarining vakillari yaratgan

---

<sup>10</sup> Лукач Г. Исторический роман Москва: Common place, 2014. – С.178. ISBN: 978-99970-0119-1https://lukach-georg/istoricheskiy-roman.ru. ( murojaat sanasi: 22.09.2023)

<sup>11</sup> Жачемукова Б., Бешукова Ф. Художественная специфика жанра исторического романа // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия: Филология и искусствоведение. – Майкоп, 2011. – №1. – С. 13-19.

“memuar”, “esdalik”, “xotira”, “badiylashgan tarix”, “kundalik” kabi umumiy janrlarning o‘rni beqiyos.

L.Prashkovich, S.Petrov kabi olimlar tarixiy romanlarni bir necha – tarixiy-qahramonlik, tarixiy-inqilobiy, tarixiy-sarguzasht, tarixiy-fantastik kabi turlarini ko‘rsatganlar. An’anaviy tarixiy roman markazida to‘qima obraz turadi. Tarixiy shaxslar ayrim lavhalarda yoki bosh qahramon bilan yonma-yon ishtirok etadi. Professor G‘.Murodov o‘z tadqiqotida bunday romanlarni “Volter Skott romani” deb e’tirof etgan. Olim an’anaviy tarixiy romanga xos badiiy-poetik xususiyatlarni tahlil etgan<sup>12</sup>.

Bobning ikkinchi faslida “Tarixiy romanning nasr taraqqiyotidagi o‘rni va badiiy xususiyatlari” tadqiq etilgan.

Tarixiy romanga xos xususiyatlar quyidagicha belgilanadi: a) syujetning asosi aniq tarixiy voqealardan iborat bo‘lishi; b) muallif tarixiy hujjatlar, manbalarga tayanishi; c) romanda tarixiy faktlar va badiiy to‘qima birlashtirilishi; d) qahramonlar ham haqiqiy, ham to‘qima obrazlar bo‘lishi mumkinligi; e) muallif o‘zi tasvirlagan tarixiy voqealarga o‘z nuqtayi nazaridan o‘tkazib munosabat bildirishi; f) roman tasvirlanayotgan davrga xos bo‘lgan tilda yozilishi<sup>13</sup>.

Tarixiy romanning asosiy vazifalaridan biri tarixiy voqelikni faktlarga tayangan holda o‘rganishdir. Tarixiy roman o‘quvchiga tarixiy voqealar va davrlarni yaxshiroq tushunishga, yangi bilimlarni berishga, tarixni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Muallif davr haqidagi bilimlaridan o‘quvchiga tarixiy voqealar, personajlar haqida chuqurroq tushuncha berish uchun foydalanishi mumkin<sup>14</sup>. Umuman olganda, tarixiy roman – bu tarixiy faktlar, xayoliy personajlar va voqealarning kombinatsiyasi bo‘lgan janr. U sujet va mavzularning turli elementlariga ega bo‘lishi mumkin, ammo umumiy maqsadi o‘quvchiga tarixiy voqealar, davrlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradigan qiziqarli hikoyani yaratishdan iborat.

Adabiyotshunos A.Kattabekov tarixiy romanlarga xos xususiyatlarni tasniflagan<sup>15</sup>. Olim tavsiya etgan xususiyatlar asosiy mezon bo‘la olishini ta’kidlagan holda, unga yana tarixiy asarlar tili bilan bog‘liq talab ham qo‘shilsa, mezon yanada to‘laroq bo‘ladi, degan xulosa yuzaga keladi. Chunki badiiy asar tili tarixiy asarlarda davr ruhini ifodalash, personajlar ichki olamini tasvirlashda asosiy vosita hisoblanadi. A.Kattabekovning tadqiqotida o‘tgan asrning 70-80 yillarida yaratilgan romanlar xususida fikr yuritilganligi bois bugungi kun talabidan kelib chiqib qayta ishlanishni, yangicha badiiy tafakkur nuqtayi nazaridan o‘tkazilishi zarur bo‘ladi.

Ijodkor tarixiy roman yaratishda bir qator xususiyatlarga alohida e’tibor qaratadi, ya’ni o‘tmish voqealari hamda unda ishtirok etgan tarixiy shaxslar haqida konkret tasavvur berish, tarixiy davrning ijtimoiy-tarixiy xarakteristikasini faktlar va ilmiy asoslar bilan yoritib berishni talab etadi. Tanqidchi V.G.Belinskiy

<sup>12</sup> Муроодов Ғ. Тарихий романнинг муштараклик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари: Филол.фан. д-ри (DSc)... дисс. автореф. – Тошкент, 2018.

<sup>13</sup> Малкина В. Поэтика исторического романа: проблема инварианта и типология жанра. – Тверь: Твер. гос. ун-т, 2002.

<sup>14</sup> Stocker B. Historical Fiction: Towards A Definition. –London, 2019. [https://www.researchgate.net/publication/345438175\\_Historical\\_Fiction\\_Towards\\_A\\_Definition](https://www.researchgate.net/publication/345438175_Historical_Fiction_Towards_A_Definition). (murojaat sanasi: 22.09.2023)

<sup>15</sup> Каттабеков А. Тарихий роман хусусида баҳслар // Ўзбек адабий танқиди. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2011. – Б. 29.

“romanda ijtimoiy jamiyat manzarasini tasvirlash hayotni poetik tahlil etishdir” deya e’tirof etgan. Gegel esa romanda manfaatlar, xarakterlar, hayotiy munosabatlarning boyligi va rang-barangligi, yaxlit dunyoning keng manzarasi to‘la namoyon bo‘ladi, deb ta’kidlaydi. Ushbu fikrlarda olimlar romanga xos tafakkur hayotni yaxlitligicha, uning pastu-balandi, shaxs va jamiyatni, tarix bilan o‘zaro aloqada bo‘lishini e’tirof etadi. Umuman olganda, roman yaratishda yozuvchi shaxs va jamiyat, umuminsoniy manfaatlar, qarashlar nuqtayi nazaridan yondashishi kerak. Ijodkorning chuqur falsafiy mulohaza qilishi hamda o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lishi uning ijodidagi g‘oyaviy pozitsiyaning aniq va mukammalligidan dalolat beradi. Demak, adabiyotshunoslikda romanchilik imkoniyati keng bo‘lgan janrdir.

Tarixiy asar adabiyotshunoslikda eng ko‘p munozalarga sabab bo‘ladigan asar turidir. Buni quyidagicha 4 bosqichda tasnifladik:

Til va uslub jihatdan. Qadimgi ingliz adabiyoti ingliz tilining lug‘at va sintaksis bilan bog‘liq jihatiga ta’sir ko‘rsatdi. Qadimgi ingliz tilidan ko‘plab so‘zlar va iboralar zamonaviy ingliz tiliga kiritilgan. Bu ijoddagi o‘tmish va zamonaviy uslubni yaqinlashishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Janr nuqtayi nazaridan. Qadimgi ingliz adabiyotida mavjud bo‘lgan ko‘plab janrlar zamonaviy adabiyotda mashhur bo‘lib kelmoqda. Masalan, «Beovulf» dostonidagi epik she’riyat J.R.Tolkien kabi yozuvchilarga, xuddi shunday qadimgi ingliz adabiyotidagi diniy mavzular zamonaviy yozuvchilarga fantaziya va ilmiy fantastika sohalarini rivojiga ta’sir ko‘rsatdi.

Mavzular ko‘lami asosida. Qadimgi ingliz adabiyoti qahramonlik, sadoqat, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash kabi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib kelayotgan mavzular bilan shug‘ullanadi. Ushbu mavzular zamonaviy yozuvchilar tomonidan turli yo‘llar bilan o‘rganilgan.

O‘tmishni talqin qilish. Qadimgi ingliz adabiyoti o‘tmishga va o‘sha davrda yashagan odamlarning e’tiqodlari va qadriyatlariga ko‘zgu bo‘ladi. Zamonaviy yozuvchilar tarixiy davrlarni o‘rganish va zamonaviy madaniyatning ildizlarini tushunish uchun o‘tmish davr adabiyotidan foydalanganlar.

Demak, tarixiy roman turli madaniyatlar va jamiyatlarni o‘rganish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. U din, siyosat, iqtisod, axloqiy me’yorlar va boshqalar kabi hayotning turli madaniy, ijtimoiy jihatlarini aks ettirib, o‘quvchilarga o‘tmishda sodir bo‘lgan madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlarni, ularning hozirgi hayotimizga ta’sirini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Birinchi bobning uchinchi fasli “O‘zbek va ingliz tarixiy romanlarida malika obrazining genetik ildizlari” deb nomlangan.

Tarixiy asar va undagi personajlar haqida so‘z ketganda malikalar obrazi alohida e’tibor qaratiladigan mavzulardan ekanligi anglashiladi. Sharq va G‘arb tarixida ulkan tadbirlarni amalga oshirgan, buyuk hukmdorlarga rafiqa yoki qizlik mavqeyiga tayanib davlatni boshqargan ko‘plab malikalar faoliyati bizga ma’lum. Ular ana shu sa’y-harakatlari tufayli tarix sahifalarida o‘z o‘rniga ega.

Sharqda malikalar obrazi xalq og‘zaki ijodi namunalarida, xususan, doston, ertaklarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, “Malikayi Husnobod”, “Malikayi Xubon”, “Malikayi Jahon” kabi ertaklarda bosh qahramonlar hukmron xonadonlarning nufuzli xonadon malikalari bo‘lib, ularning to‘laqonli talqini idrokli, jasur ayol sifatidagi xususiyatlari orqali tasvirlangan, katta jasorat egasi deya baholangan.

Tarixiy dostonlarning mumtoz namunasi “Oysuluv” yurtimizda ikki yarim ming yil oldin ro‘y bergan mustaqillik uchun olib borilgan kurashning badiiy ifodasi bo‘lib chiqdi. Gerodotning “Tarix” kitobidagi To‘maris voqeasi “Oysuluv” dostonidagi voqealarga o‘xshaydi. To‘maris haqidagi rivoyat matni saqlanmaganida “Oysuluv”ning yaratilishida tarixiy voqea asos bo‘lganini aniqlash juda mushkul kechardi. Taniqli olimlar T.Mirzayev va B.Sarimsoqov “Oysuluv” dostonining vujudga kelishida To‘maris nomi bilan mashhur tarix asos bo‘lganini ilmiy dalillab berganlar. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan “Alpomish” qahramonlik eposida, Go‘ro‘g‘li turkumidan: “Malikayi Ayyor”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon”, “Xoldorxon” kabi dostonlarda malikalar obraz sifatida aks etgan. Shuningdek, o‘zbek xalq ertaklaridan “Malika Birmisqol”, “Malikayi Gulizor”, “Malikayi Xusnobod”, “Ziyod botir” ertagida Sulton Fotihning qizi Qamarxon kabi personajlar orqali ertaklarning badiiy kechinmasi namoyon bo‘ladi.

“Shohnoma” asaridan so‘ng malika obrazi Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” hamda “Iskandarnoma” dostonlarida uchraydi. Nizomiy Ganjaviy an‘anasini davom ettirgan Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy” dostonlarida ham malikalar obrazi yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Shirin obrazi Sharq xalqlari o‘rtasidagi adabiy aloqalarning rivojlanishi va yuksalib borishida muhim ahamiyat kasb etgan Armaniston malikasidir. Ko‘plab sharqshunos olimlarning fikriga ko‘ra Shirin tarixiy shaxs hisoblanib, VI asrning oxiri VII asrning boshlari yashagan. Uning millati va tug‘ilgan maskani haqida ma’lumotlar keltirilmagan<sup>16</sup>.

O‘zbek adabiyotida malikalar obrazi tasvirlangan bir qancha asarlar mavjud. Malikalar haqida ko‘plab qo‘lyozma va toshbosma asarlarda qiziqarli ma’lumotlar mavjud. O‘zbek adabiyoti tarixida malikalar obrazi XVII-XVIII asr namunalarida ham qisman bo‘lsa-da uchraydi.

Yevropa adabiyotida ham malikalar hayoti va faoliyati haqida hikoya qiluvchi doston va eposlar mavjud. Professor Jon Miles Foley bu borada tahlillar olib borgan.<sup>17</sup>

G‘arb adabiyotida malikalar bilan bog‘liq ko‘plab afsonalar mavjud. Masalan, “Qirolicha Gvinever” afsonasi qirol Arturning rafiqasi malika Gvinever haqida hikoya qilinadi.

O‘zbek va ingliz xalq og‘zaki ijodida malikalarning o‘ziga xos o‘xshash va farqli jihatlarini quyidagi jadvallarda ko‘rish mumkin:

1.3.1-jadval

<b>O‘zbek va ingliz xalq ertaklaridagi malikalarning o‘xshash jihatlari</b>	<b>O‘zbek</b>	<b>Ingliz</b>
Oliyjanoblik	✓	✓
Aql-zakovatli	✓	✓
Go‘zallik timsoli	✓	✓
Sinovlarda bardoshlilik	✓	✓
Ma‘rifatparvar	✓	✓
Shaxsiyat tarbiyasida faol	✓	✓
Saodatli taqdir egasi	✓	✓

<sup>16</sup> Алиев Г. Легенда о Хосрове и Ширин в литературах Востока. – М.: Восточной литературы, 1960.

<sup>17</sup> McCarthy, William and John Miles Foley. Traditional Oral Epic: The Odyssey, Beowulf, and the Serbo-Croatian Return Song. – USA: University of California press, 1991. – P.680.

<b>O‘zbek va ingliz xalq ertaklaridagi malikalarning farqli jihatlari</b>	
<b>O‘zbek ertaklari</b>	<b>Ingliz ertaklari</b>
Milliy an’analar	Yevropacha uslub
Hunar egallash (tikish, kashtachilik, gilamdo‘zlik, zardo‘zlik)	San’atda bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish (raqs, musiqa, rasm chizish)
Sharqona andisha	Erkin fikrlash

Yuqoridagi jadvallardan ko‘rinadiki, o‘zbek va ingliz folklori namunalarida malika obrazining tasvirida mushtarak jihatlarning tutashgan nuqtalari hamda har ikki xalqqa xos dunyoqarash va milliy ruhiyat namoyon bo‘lgan.

Ingliz adabiyotida ham tarixiy romanning vujudga kelishida xalq og‘zaki ijodi namunalari, epos, doston, hikoya va rivoyatlar, o‘tmishdagi yozma bitiklar bunga asos bo‘ladi. Demak, Sharq va G‘arb adabiyotiga malikalalar obrazi xalq og‘zaki ijodi orqali kirib kelgan degan fikrni asoslash mumkin.

O‘zbek tarixiy romanchiligida yurtimiz o‘tmish hayoti va tarixida yashagan malikalar, ularning ijtimoiy siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi faoliyati xususida Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Muhammad Ali, Nurali Qobul, Shahodat Isaxonova, To‘lqin Xayit, Poyon Ravshanov, Xurshid Davron, Risolat Xaydarova kabi adiblarning nodir asarlari talaygina.

O‘zbek nasrining yirik namoyondalaridan biri Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni” nomli romanlarida buyuk Boburiylar sulolasining vakillari, xususan, Xonzodabegim, Qutlug‘ Nigorxonim, Oyshabegim, Mohim begim kabi sulolaning malikalari va ularning taqdirleri bilan bog‘liq voqealar haqida bayon etiladi.

Yozuvchi romanda Bobur obrazini tasvirlash bilan bir qatorda, u bilan zamondosh bo‘lgan, uni zaharlab o‘ldirmoqchi bo‘lgan Malika Bayda obrazini ham badiiy poetik mahorat bilan tasvirlagan. Asarda Malika Bayda o‘g‘li Ibrohim Lodi uchun Boburdan qasd olmoqchi bo‘lgan ona, o‘z vatani, xalqi uchun kurashayotgan fidokor sifatida gavdalanadi. Yozuvchi Bobur obrazini shunday mahorat bilan tasvirlaganki, uning Malika Baydaga, ya’ni dushmaniga qilgan munosabati orqali, Bobur obrazini ayollarga bo‘lgan samimiy munosabatini anglash mumkin. Shuningdek, P.Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida muallif temuriyzodalar – Shohruh Mirzo umrining so‘nggi damlari, Mirzo Ulug‘bekning tahlikali kunlari, halokati, Abu Said saltanati yillari, nihoyat, Husayn Boyqaroning hokimiyat tepasiga kelishi voqealarini qalamga olinadi. Hajm jihatdan ham “Yulduzli yunlar” va “Avlodlar dovoni”ga nisbatan ancha mo‘jaz bu romanning voqealar ko‘lami hiyla keng. Toju-taxt uchun ketgan shafqatsiz jang-u jadallar, saroydagi ichki nizolar, tashqi tazyiqlar, o‘zaro adovatlar, son-sanoqsiz qotilliklar romanda bor holicha ko‘rsatiladi. Biroq bu roman toju-taxt uchun ketgan jang-u jadallarning xronikasi emas. Asar markazida temuriy tojdorlar emas, balki ona lochin – Gavharshodbegim siymosi turadi.

Adibning avvalgi romanlarida ham qator temuriylar sulolasiga mansub ayollarining obrazi katta ehtirom, mehr-muhabbat bilan qalamga olingan edi. Ayniqsa, Xonzodabegim, Hamidabonu obrazlari tarixiy romanchiligimizda muhim yangilik bo‘ldi. Xonzodabegimning inisi Boburga cheksiz mehri, sadoqati, o‘z shaxsiy hayotini qurbon qilib, ko‘ngli tusamagan odam Shayboniyxon sharoitiga

ko'rib, uning nikohiga o'tishi, inisining hayotini qutqarib qolishi, binobarin, o'z hayoti, baxtini o'rtaga qo'yib, temuriylar saltanatini asrab qolishga intilishi haqqoniy tasvirlangan. Professor M.Xolbekovning yozishicha, "Badiiy to'qimadan ranglar uyg'un, tovushlar ohangdosh, xushmanzarali, har tomonlama qulay va go'zal dunyoning paydo bo'lishi – bu kundalik hayotga qarshi chiqishning utopik shaklidir"<sup>18</sup>. Darhaqiqat, tarixiylik nafaqat jahon nasri, balki o'zbek milliy nasri, jumladan, romanchiligining ham asosiy adabiy-estetik jihatlaridan biri hisoblanadi. Badiiy asarda tarixiylik prinsiplarining namoyon bo'lishida tarixiy shaxs, makon va zamon, davr va qahramon munosabati kabi ko'plab masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek adabiyotida mashhur tarixiy shaxslar hayoti asosida yaratilgan romanlarning syujet yo'nalishida ham, prototipiga ega bo'lmagan to'qima obraz yoki voqealar silsilasi aks ettirilgan asarlarda ham, qahramonlar nutqining stilizatsiyasida ham tarixiylik bosh ijodiy prinsip sifatida bo'y ko'rsatganini kuzatish mumkin.

O'zbek va ingliz adabiyotida malika obrazi milliy o'ziga xoslikka ega. Ingliz tarixiy romanlarida malikalar ko'pincha mustaqil siyosiy subyektlar sifatida tasvirlanib, ularning qarorlari va strategiyalari batafsil yoritiladi. O'zbek adabiyotida esa ayollar hokimiyati ko'pincha eri, o'g'li yoki otasining mavqeyi orqali ifodalanadi, siyosiy ta'sir ko'proq bilvosita ko'rsatiladi.

Ingliz adabiyotida ham malikalar obrazi tasvirlangan ko'plab asarlar mavjud. Jumladan, qirolicha Viktoriya haqida, uning hayoti va hukmronlik davri haqida bir qancha asarlar yozilgan. Taniqli ingliz yozuvchisi Dayzi Gudvinning "Viktoriya" romanida qirolicha Viktoriya hukmronligining dastlabki yillari, shahzoda Albert bilan bo'lgan muhabbat romantikasi va yosh monarx sifatida duch kelgan qiyinchiliklari tasvirlanadi. Romanda Viktoriyaning ichki dunyosi, hissiyotlari va kechinmalari ham voqealar bayoniga tortilgan. Gudvin uni mas'uliyati og'ir davlat ishlari va unga qo'yilgan ijtimoiy talablar bilan kurashayotgan yosh ayol sifatida tasvirlaydi. Yozuvchi Qirolicha Viktoriyani kuchli monarxiyaning shohona qiyofasini va o'ziga xos yosh ayolning insoniy fazilatlarini o'zida mujassam etgan dinamik xarakter sifatida tasvir etadi.

Demak, tarixiy romanlar genezisi ingliz va o'zbek adabiyotida folklor namunalariga borib taqaladi. Tarixiy shakllanish bosqichida ilk yozma adabiyot namunalarida tarixiy shaxslar, tarixiy voqelik tasvirini berish orqali rivojlanib borgan hamda badiiy-estetik hodisa sifatida janr ko'rinishini olgan. Sharq va G'arbda malikalar nafaqat hukmdorlar rafiqasi yoki shahzodalar onasi sifatida, balki saroy hamda hukumat ishlarida ham maslakdosh sifatida namoyon bo'lishgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Tarixiy romanlarda moziy haqiqati va badiiy to'qimaning qiyosiy tahlili**" deb nomlangan va uning birinchi faslida "Malika biografiyasiga ijodkor munosabati tadqiqi" o'rganilgan. Tarixiy roman fan bilan san'at o'rtasidagi integratsion nuqta<sup>19</sup> ekanligini ta'kidlagan rus munaqqidi V.G.Belinskiy o'tmish asarlarda yoritilgan ijtimoiy-siyosiy muammo va voqealar asar qahramonlarining tarixiy haqiqati bilan mutanosib bo'lishi shart emasligini qayd etadi. Zero, tarixiy asar muallifi o'z tasavvuri va fantaziyasidan kelib chiqib,

---

<sup>18</sup> Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2014. – Б. 232.

<sup>19</sup> Белинский В. Танланган асарлар. – Тошкент: Уздавнашр, 1955. – Б. 178.

badiiy to‘qimaga, ya’ni to‘qima syujet, to‘qima obraz va voqealarga murojaat etadi. Buning asnosida o‘tmish haqiqati aniqlikda asoslanadi.

Ma’lumki, badiiy asarning asosiy mazmunini va undagi qahramonlarning xarakterini ochib beradigan, o‘zaro uzviy bog‘langan voqea-hodisalar majmuiga nisbatan to‘qima deyiladi. To‘qima muallifning hayotot mevasi. Agar yozuvchi o‘z personajini, asar voqealarini xayolot dunyosining badiiyat mantig‘i bilan isbotlasa, unda u badiiy to‘qimaga aylanadi. Tarixiy asar yaratishda har bir ijodkor badiiy to‘qimaga murojaat etmasligini iloji yo‘q. Lekin to‘qima uydirma bilan farqlanishi kerak. Bibixonim Amir Temurning suyuqli rafiqasi bo‘lganligi, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o‘rin tutganligi barchamizga ma’lum. Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida Amir Temur Saroymulxonim bilan qanday tanishganligi voqeasi bayon qilinadi: *“Bir kecha tushida (Bayonqulixon) Shayx ul-a’lamni ko‘rdi. Aydilar: xilofi shar’iy qilmagil, turgil, qizlaringni erga bergil. Bayonqulixonning to‘qqiz qizi bor edi. Uyqudan turib barcha qizlarini ja‘m qildi... Barchasidan kichigi Saroymulxonimcha edi, aydi, ey ota, sizning davlatingiz soyasidan hech joyga bormasmen, er ham qabul qilmasmen, dedi...”* Podshoh kunlardan bir kuni tushida yana bir bor Shayx ul-a’lamni ko‘radi. Bu mo‘tabar zot podshohdan Saroymulxonimni turmushga berishini so‘raydi. Ertangi kuni xon qizini huzuriga chorlaydi. Qiz esa *“maning xohishimga qarasangiz?! Mani Tarag‘ay Bahodir o‘g‘liga (Amir Temurga) beringiz”* deydi. Biroq Shahrizabz begi Tarag‘ay bahodir bilan xon o‘rtasidagi munosabatlar sovuqlashganligi tufayli Bayonqulixon ushbu nikohga rozilik bermaydi<sup>20</sup>. “Temurnoma”da Saroymulxonim Bayonqulixonning qizi, deb ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, aslida, tarixiy manbalarda uning Movarounnahrning chingiziylardan bo‘lgan hukmdor Qozonxonning qizi degan ma’lumotlar bor. Asarda tarixiy voqealar xronologiyasiga amal qilish borasida ham kamchiliklar kuzatiladi. Chunki voqealarni, tarixiy shaxslarni odilona baholashda xronologiyaning o‘rni beqiyosdir. Badiiy asarda voqealar tartibiga rioya qilishda, uning mazmunida bir qadar nisbiylik mavjud.

Bayonqulixon arzanda qizini Amir Temurga uzatishga unamagach, malika otasiga *“kimda kim men bilan shaxmat o‘ynab yutsa, g‘olibga xotin bo‘laman, garchi u cho‘pon bo‘lsa ham”* deydi. Xon bu musobaqaga rozilik beradi. Malika qul yigit usti boshini kiyib, shaxmat musobaqasiga keladi; *“Xonimcha aydi man qulbachalaringiz sifatida bo‘lay. Siz ayting, kim bizni qulbachamiz bilan shatranj o‘ynamoq da’vosin qilur, har kim shuni yutsa man unga qulimni in‘om qilurman. Xon andin keyin qizin so‘zin qabul qilib, xo‘p dedi”*. Ma’lumki, qadimdan Sharq ayollari ibo, hayo, borasida ancha mukammal bo‘lgan. Asarda yozuvchi Saroymulxonim obrazini andishasiz etib tasvirlagan. Turon ayollari turmushga chiqishda otasiga shart qo‘yish uyoqda tursin, hattoki ko‘zlariga tik qaragani botina olmaganlar.

Tarixiy romanlarda malikalar ko‘pincha hokimiyatga ega va saroy hayotining murakkabligini boshqaradigan kuchli, ta’sirli shaxslar sifatida tasvirlangan. Ushbu romanlar tarix davomida malikalarning hayotini tavsiflovchi siyosiy fitna, hokimiyat uchun kurash, shaxsiy qurbonliklarga oyna beradi. Qirollik saroylarining ulug‘vorligidan tortib, yetakchi qiyinchiliklarigacha, tarixiy romanlardagi kuch, burch va shaxsiy munosabatlarning nozik tomonlarini o‘z

<sup>20</sup> Тошкандий С. Темурнома. – Тошкент: Чўлпон, 1991. – Б. 24.

ichiga olgan malikalar tasvirini namoyon etadi. Nensy Goldstounning “To‘rt malika” asarida tarixiy romanlardagi qirolichalar obrazi berilgan bo‘lib, ular siyosiy arbob sifatida tasvirlanadi, asarda ular hayotining shaxsiy va hissiy tasvir etiladi. “The messengers had long since brought news of Louis’s death - but only now did the Queen Mother learn of the true scale of the losses caused by the crusade: her husband, son, daughter, son-in-law and daughter-in-law, and long-awaited grandson, and brother-in-law, and his wife - all were dead”<sup>21</sup>.

(*Elchilar Luiz vafot etgani haqida xabar berib ketishganiga ancha bo‘lgan edi, biroq ona qirolicha endigina salib yurishining nechog‘lik ulkan bir falokat bo‘lganini anglab yetdi: turmush o‘rtog‘i, o‘g‘li, qizi, kuyovi, kelini, qaynisi va uning xotini – hammasi o‘ldi.*) Ushbu romanda malikaning ichki dunyosini g‘alabalari va siyosiy sahnadagi o‘rnini tasvirlaydi. Qirolichalarning tarixiy romanlarda obraz sifatida o‘rganar ekanmiz, ularni o‘z davrlaridagi cheklovlarni bosib o‘tib, tarix ostonasida doimiy iz qoldirganliklarini anglaymiz.

Tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima ingliz adabiyotida o‘zaro ta’sir qiluvchi ikkita muhim jihatni qamrab oladi. Yozuvchilar ko‘pincha tarixiy voqealar, personajlar va faktlarga murojaat qilib, nafaqat kitobxonni o‘ziga jalb qiladigan, balki ma’lum tarixiy voqea va hodisalarni, ijtimoiy-siyosiy muhitni yetkazadigan badiiy asarlarni yaratadilar. Tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimalarning o‘zaro ta’siri turli shakllarda bo‘lishi mumkin. Ba’zi yozuvchilar tarixiy haqiqiylikni maksimal darajada oshirishga intilishadi va o‘tmishning real, aniq tasvirini yaratish uchun tarixiy manbalar hamda arxivlarni sinchkovlik bilan o‘rganadilar. Ular tarixiy haqiqatni avvalgidek yetkazishga, tarixiy dalillarni qiziqarli, kitobxonlarga tushunarli bo‘lishi uchun ko‘plab badiiy vositalardan foydalanishga intililadi.

Biroq yozuvchilar tarixiy aniqlik va badiiy maqsadlar o‘rtasida murosaga kelganda yana bir yondashuv mavjud. Ular voqealar xronologiyasini o‘zgartirishi, xayoliy personajlarni qo‘shishi yoki tarixiy dalillarni o‘zgartirib, yanada dramatik yoki hissiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu yondashuv yozuvchilarga qiziqarli va badiiy ahamiyatga ega asarlarni yaratishga imkon beradi, shu bilan birga tarixiy voqeaning haqiqiyliги to‘g‘risida ishonch beradi. Dissertatsiyada o‘zbek va ingliz tarixiy asarlaridagi malikalar shaxsining qiyosiy tasviriga keng o‘rin berilgan.

Umuman olganda, o‘zbek va ingliz adabiyotidagi qirolichalar va malikalar obrazi milliy o‘ziga xoslik, tarixni yoritishdagi yondashuvga ko‘ra farq qiladi. Jumladan, har ikki xalq malikalari saroy fitnalari, siyosiy o‘yinlar va tahlikaga to‘la shuningdek, shon-shavkatli hayot fonida tasvirlashga ko‘ra umumiylik kasb etsa-da, o‘zbek malikalari haqidagi asarlarda badiiy to‘qimaga ko‘proq tayaniladi, tarixiy faktlar esa kamroq qo‘llanadi. Ingliz tarixiy asarlaridagi malikalar tasvirida esa aniq faktlar, tarixiy voqelik yetakchi o‘rin tutadi. Ularda malikalar obrazini tarix oldidagi yutuq va kamchiliklarini badiiy to‘qimadan kamroq foydalangan holda ro‘y-rost tasvirlashga e’tibor qaratiladi. Bu farqlar tarixda o‘zbek, umuman turkiy xalqlar, sharq ellaridagi ayollarga munosabat, islomiy tushunchalar va qadimiy an’analarga asosan “ko‘zdan pana qilish”, yashirin va sirli haram hayoti amalda bo‘lgani bilan izohlash mumkin. Shuning uchun ham turkiy malikalar, saroy xonimlari haqida juda kam ma’lumotlar saqlanib qolganki, bu bevosita

---

<sup>21</sup> Голдстоун Н. Четыре королевы. – М.: АСТ, 2010. <https://readli.net/chetyire-korolevyi> (murojaat sanasi: 18.11.2024).

yoʻzuvchilarimizning tasvirda koʻproq badiiy toʻqimaga, ijodiy tasavvurga tayanishiga olib kelgan.

Bobning ikkinchi fasli “Malika obrazini yaratishda yoʻzuvchining badiiy mahorati” deb nomlangan. Tarixiy romanda muhim boʻlgan narsa bu buyuk tarixiy voqealarni qayta hikoya qilish emas, balki bu voqealarda ishtirok etgan odamlarning poetik uygʻonishidir<sup>22</sup>. Maʼlumki, roman voqealarini tez va oson anglashimiz uchun qahramonlar portreti kishining ichki dunyosini inʼikosi hisoblanadi. Qahramon portreti muallifning tasvir etayotgan shaxsga munosabatini ham ifoda etadi. Masalan Gregorining “Boleyn sulolasining soʻnggi vakili” asarida Anna Boleyn portreti juda goʻzal, viqorli hamda jozibador etib tasvirlanadi. Hattoki bu asar davomida yuzaga kelgan konfliktida ham taʼkidlab oʻtiladi. Annaning opasi Mariya va akasi Jorjlar bilan oʻrtasidagi ziddiyatlarning asosiy sababi sifatida uning yosh va kenja boʻla turib, chiroyi va latofati bilan Angliya qirolining qalbidan joy olishi hamda unga ikki nafar farzand ato etishi koʻrsatiladi. Bu, albatta, Mariyaning hasadini keltirar edi. Shu oʻrinda Filippa asar ichida Anna portretiga tasvirlab oʻtadi “*She scowled at him, her beauty completely erased by jealousy. ... “Half the court thinks I’m the most beautiful woman in the world”*”. (Unga nafratga toʻla nigohi bilan qaradi, goʻyo rashk uning beqiyos husnini bir zumda oʻgʻirlab ketgandi. ... Saroy aʼzolarining yarmi meni dunyodagi eng maftunkor ayol deb hisoblashadi).

“*Anne could always be comforted by the sight of her own beauty*”(Anna har qanday vaziyatda ham oʻz goʻzalligiga qarab tasalli ola oladi) deya taʼkidlaydi uning opasi Meri.

Romanda muallif Anna Boleyn haqida “in some glorious new condition, earned by her beauty and her wit”, which indicates that Anne is not just beautiful, but that she uses her charms and brains as well to get exactly what she wants.”(Anna nafaqat maftunkorligi va goʻzalligi tufayli, balki aql-zakovati bilan ham oʻzi istagan barcha narsalarga erishdi) deya taʼkidlaydi.

Oʻzbek adabiyotida temuriy malika Gavharshodbegim haqida ham bir qancha asarlar mavjud. Bu asarlarning barchasida ham mazkur obrazga turlicha yondashuvlarga duch kelamiz. Xususan, yoʻzuvchi Pirimqul Qodirov “Ona lochin vidosi” romanida Gavharshodbegimni maʼnaviy yetuk ayol, mehribon va jonkuyar ona, suyakli rafiqa, yaxshi kelin, aqlli, shijoatli va dono momo obrazida gavdalantirgan. Uni qatl ettirgan hukmdorni mangu malomatga qoldi deya taʼriflashgan. Odil Yoqubovning “Ulugʻbek xazinasi” romanida ham Gavharshodbegim obrazi mavjud boʻlib, faqat bu obrazga bir tomonlama yondashilgan. Odil Yoqubov Gavharshodbegimni Abdulatifning yovuzligining sababchisi deya tasvirlaydi. Davlatga kelayotgan barcha xavf-xatar sababchisi Gavharshodbegim deya ataydi. Uni shahzodalar oʻrtasiga nizo urugʻini sohib, janjal chiqaruvchi shaxs qilib tasvirlaydi. Pirimqul Qodirov Odil Yoqubovdan farqli oʻlaroq, Gavharshodbegim obraziga bir tomonlama yondashmaydi va uning ijobiy xislatlarini taraflarini ochib beradi. Yoʻzuvchining mahorati ham aynan shu joyda koʻrinadi. Yoʻzuvchi Gavharshodbegimni suyakli kelin, vafodor yor, mehridaryo ona sifatida kitobxon koʻz oʻngida jonlantirar ekan, oʻzbek ayoli, oʻzbek onasiga xos barcha ezgu xislatlarni uning siymosida mujassamlashtirishga

---

<sup>22</sup> Лукач Г. Исторический роман. – М.: Common place, 2014. ISBN: 978-99970-0119-1<https://lukach-georg/istoricheskij-roman.ru>. (murojaat sanasi:18.01.2025).

harakat qiladi. Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida muayyan sabablarga ko‘ra bu buyuk siymo obrazi bir oz bir yoqlama, o‘ta mutaassib ayol tarzida talqin etilgan.

Demak, yuqorida sanab o‘tilgan malikalarga bag‘ishlangan tarixiy romanlarda tasvirlagan bir qancha voqealar va obrazlar har doim ham o‘zaro bir markazga birlashib, mavzuning bosh va asosiy g‘oyasini to‘la ochib berish imkonini bermaydi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “O‘zbek va ingliz tarixiy romanlarida saroy xonimlari shaxsiyati va taqdiri talqinlari” deb nomlanadi. Sharq va G‘arb adabiyotini o‘rganar ekanmiz, buyuk hukmdorlarga rafiqalik yoki qizlik mavqeyiga tayanib davlat boshqaruvida ulkan tadbirlarni amalga oshirgan va ana shu sa‘y-harakatlari tufayli tarixda nom qozongan ko‘plab ayol siymolarni uchratamiz. Turon kabi Yevropada ham malikalar faoliyati hukumat boshqaruvida salmoqli o‘rin egallagan. Ayniqsa, Angliyani “malikalar mamlakati” desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Qirolicha Elizabetta I, Mariya Tyudor, Viktoriya, Anna Boleyn kabi malikalar nafaqat mamlakat tarixida, balki jahon adabiyotining durdona asarlarida ham muhim o‘rin tutadi. Angliya qirolichasi, Genrix VIII va Anna Boleynning qizi Elizabetta I davrida 1558-yildan mutloq hokimiyat mustahkamlandi, ingliz cherkovlari qayta tiklandi va Yengilmas Armada vayron qilindi. Irlandiyada mustamlakachilik keng tarqaldi. Har qanday davlat tarixida hukmdorlar bo‘lgan, ular iqtisodiy tiklanishga va boshqa o‘zgarishlarga o‘zlarining hissalarini qo‘shgan, odatda ularning ismlari qatorida o‘sha davr yorqin kishilarining nomlari ham bo‘lgan, ular insonlar ongida yirik inqilob yaratadigan islohotchilar bo‘lgan. Britaniyaliklar uchun bunday hukmdor Elizabetta I edi. Qudratli qirolicha hayoti ko‘plab tarixiy romanlar va ilmiy asarlar mavzusi bo‘lgan. Uning hukmronligi an‘anaviy gender faoliyatii va siyosiy mafkuralarga qarshi chiqdi, chunki u haqiqatni diniy va siyosiy kuch bilan birlashtirdi<sup>23</sup>. Margaret Irvine trilogiyasi kabi tarixiy romanlarda Elizabettaning qizlikdan to‘j kiyishgacha bo‘lgan sarguzashtlari tasvirlangan, u yosh kitobxonlarni buyuklik haqidagi tasavvurlar bilan o‘ziga tortgan<sup>24</sup>. Elizabettaning xususiy mulkchilikdan strategik foydalanishi va uning moliyaviy qobiliyatlari Britaniya imperiyasining asoslarini yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynadi va u raqiblaridan “qaroqchi malika” laqabini oldi<sup>25</sup>. Darhaqiqat, Elizabettaning hukmronligi Angliyaning iqtisodiyot va siyosatdagi muvaffaqiyatlari bilan ajralib turdi. Qirolicha Britaniya sanoatini qo‘llab-quvvatladi, birinchi navbatda xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarini o‘rnatdi.

Istiqolol o‘zbek xalqining shavkatli o‘tmishi, qadimiy davlatchilik tarixi, umumbashariy milliy-madaniy qadriyatlarini, jahon ilm-fani rivojiga munosib hissa qo‘shgan buyuk siymolarining hayoti va ijodini yanada kengroq va chuqurroq tadqiq etish, muhimi, ularga holisona baho berish uchun katta imkoniyat yaratdi. Shu nuqtayi nazardan ulkan markazlashgan davlat asoschisi, buyuk sarkarda Amir Temurning hukmronlik davrini, sulolaning alohida vakillarining

---

<sup>23</sup> Berry Ph. *Of Chastity and Power: Elizabettahan Literature and the Unmarried Queen*. – London, 1989. – P.47-49.

<sup>24</sup> Light A. *Young Bess: Historical Novels and Growing Up*. *Feminist Review* 33. – USA, 1989. – P.57-71.

<sup>25</sup> Ronald S. *The Pirate Queen: Queen Elizabettah I, Her Pirate Adventurers, and the Dawn of Empire*. – Canada, 2007. – P.103.

taqdirini asl manbalar asosida o'rganish bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu masalani teran anglagan tarixchi olimlar bu yo'lda qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. Bu o'rinda tarixchi olimlar B.Ahmedov, A.O'rinboev, A.Ahmedov, U.Urvatovlarning xizmatlari alohida ahamiyatga egadir.

Xususan, B.Ahmedovning "Tarixdan saboqlar"<sup>26</sup>, "Amir Temurni yod etib"<sup>27</sup>, A.Ahmedovning "Ulug'bek Muhammad Taraq'ay"<sup>28</sup> kabi ilmiy asarlarida Amir Temur davri bilan bog'liq ma'lumotlar zahirida temuriy malikalar Bibixonim va Gavharshodbegim haqida, qisqa bo'lsa-da, qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tganlar. Tarixchi olim Azamat Ziyoning tadqiqotlaridan biri o'zbek davlatchiligi tarixiga bag'ishlangan bo'lib, unda temuriylar sulolasi haqida, malikalar, xos kanizlar va ularning farzandlari, nabiralari haqida xronologik tartibda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan<sup>29</sup>.

Temuriy davri tarixiga bag'ishlangan badiiy asarlar qatorini so'nggi yillarda iste'dodli yozuvchi Shahodat Isaxonova davom ettirdi. Uning ikki qismdan iborat "Turon malikasi" nomli tariixy romanida ulug' Amir Temur xonadoning bosh malikasi Bibixonim, malikalar Tuman og'a, Ruhparvar og'a, Kichik xonim, To'qal xonim kabi shon-shuhratli malikalari qatorida, temuriylar xonadoning nufuzli kelini Gavharshodbegim obraziga ham katta o'rin ajratilgan. Bu oliy maqom ayollar hayotining yulduzli onlari-yu saltanat savdosi boshlariga solgan xatarli kunlari o'sha davrning tarixiy voqealari manzarasida haqqoniy aks ettirilgan. Romanda muallif tarixiy manbalarga tayangan holda Gavharshodbegimning badiiy obrazini mahorat bilan yaratgan va uni asar kompozitsiyasiga ishonarli singdira olgan. Romanning bu lavhalarida malikaning shaxsiy hislatlari, uning o'g'li – Movarounnahr hukumdori va olim Ulug'bek o'rtasida keyinchalik avj olgan kelishmovchiliklarni keltirib chiqargan sabablar o'zining nozik badiiy ifodasini topgan. Ulug'bekning yoshlik yillariga bag'ishlangan asar lavhalaridan birida shunday satrlarni uchratamiz: "Gavharshodbegim erining aksi o'laroq, qat'iyatli, shaddod, lekin g'oyat tadbirkor, ishbilarmon, aqlli ayol edi. Shu boisdan, Ulug'bek Mirzo onasi bilan xuddi Bibisi (ya'ni Bibixonim) kabi ochilib gaplasha olmas, salobati bosibmi, yo boshqa sababdanmi, tezgina suhbatga yakun yasar, otasining o'rdasida qolish imkoniyati bor vaqtlarda ham Bibixonim bilan ketishga harakat qilar edi. O'g'lining bu fe'li Gavharshodbegimning nafsoniyatiga tegib, jahlini chiqarsa-da, o'zini bosar va unga bildirmas edi"<sup>30</sup>.

Adabiyotshunos olim, tarjimon Ibrohim G'ofurov roman muallifi haqida: "Uning badiiy fantaziyasi ...voqelikni tagi yo'q yolg'on oldi-qochdilar bilan to'ldirmaydi, ko'pirtirmaydi, voqelikni bezab-bejab ko'rsatmaydi. Tarixni lirik epkin bilan qamrab oladi va lirik nigoh bilan kuzatadi"<sup>31</sup> – deb yozganida, to'la haqli edi.

<sup>26</sup> Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 431.

<sup>27</sup> Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 393.

<sup>28</sup> Аҳмедов А. Улуғбек Муҳаммад Тарақай. – Тошкент: Халқ мероси, 1994. – Б. 113.

<sup>29</sup> Ziyov A. O'zbek davlatchilik tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar. – Toshkent: Sharq, 2000. – B.383.

<sup>30</sup> Isaxonova Sh. Turon malikasi (Tarixiy roman). – Toshkent: Kamalak-press, 2014. – B. 18.

<sup>31</sup> G'ofurov I. O'rtada Bibixonim turar edi. So'ng so'z // Turon malikasi. – Toshkent: Kamalak-press, 2014. – B. 475.

Yuqorida sanab o‘tilgan manbalar qaysidur ma’noda tanlangan mavzuning mohiyatini yoritishda xizmat qilsa, boshqa jihatdan tarixiy mavzuni yoritishning usullarini va yo‘llarini ko‘rsatishda uslubiy yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbek va ingliz romanlarida malika shaxsi va obrazi uyg‘unligi”** deb nomlangan va uning birinchi faslida “Katta epik asarlarda tarixiy ayol shaxsi va badiiy obrazi uyg‘unligi” tadqiq etilgan. Qadim yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix” kitobida yurtimiz tarixida nurli sahifani tashkil etgan malika To‘maris (Tumorli qiz)ning yurt ozodligi uchun olib borgan kurashlarda zolim Kirga qarshi ko‘rsatgan jasorati hikoya qilinadi. Bu borada, ayniqsa, o‘zbek adabiyoti tarixi zamonlar va avlod -ajdodlarimizning qalb sadolari aks etgan rangin sahifalarga bo‘ydir. Ana shunday rangin sahifalarning yana bir yorqin ko‘rinishi ijodkor xotin-qizlarga oid mumtoz merosdir. Zotan, o‘zbek adabiyoti tarixining turli davrlari va bosqichlarida ijodkor ayollar adabiy hayotning faol ishtirokchilari bo‘lganlar. Inson hayotining quvonch va armonlarini dard bilan yonib kuylashi ularning asarlarida yetakchi o‘rinni egallab kelgan. Manbalarda Sharq adabiyotiga ziynat baxsh etgan Robi Balxiy (X asr), Ismatiy va Oisha Samarqandiy (XI asr), Munisa, Mahastiy va Rayhona (XII asr), Mutriba Qoshg‘ariy (XIII asr), Xorazmlik Podsho Xotun (XIV asr), Alisher Navoiyning zamondoshlari bo‘lgan Mehriy, Nihoniy, Iffatiy, Ismatiy, Jamila, Gavharbegim, Dilshod Xotun. Abdurahmon Jomiyning «Nafogatul uns» asarida nomlari qayd etilgan 32 shoira, boburiylar davrida yashab ijod etgan qator shoiralari va ularning asarlari haqida ma’lumotlar berilgan. Keyinchalik Qo‘qon adabiy muhitida Jahon otin Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno, Mahzuna va Anbar Otin kabi mumtoz ijodkorlar etishib chiqdilar.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, XVI asr boshlariga kelib, hukmronlik Ashtarxoniyalar qo‘liga o‘tadi. Ammo hududlarda bo‘lib turgan nizolar, qo‘zg‘olonlar tufayli mustaqil hokimliklar, avval Xiva (XVI asr boshlarida), so‘ng Buxoro xonliklari vujudga keldi. XVIII asrning II yarmiga kelib Farg‘ona vodiysida Qo‘qon xonligi vujudga keldi. Yaxlit bir temuriylar saltanati xududiy bo‘linishi va uch xonlikning birin-ketin tarix sahnasida paydo bo‘lishiga qaramay, hukmronlik qonun-qoidalarining ayrimlari an’anaviy tarzda saqlanib qolindi. Shuningdek, bu xonliklarda ham qator tarixchilar, shoir va adiblar yashab ijod etdilar. Tabiiyki, ular haqidagi ma’lumotlar, asosan, tarixiy manbalarda uchraydi. Masalan, Ogahiy qalamiga mansub “Riyoz ud-davla” asarida Muhammad Rahimxon, Olloqulixon haqidagi tarixiy ma’lumotlar keltirilgan.

Ayniqsa, Ogahiyning “Jome’ ul-voqeoti Sultoniy”, “Gulshani davlat”, “Shohidi Iqbol” nomli tarixiy asarlarida Xiva taxtida hukmronlik qilgan Muhammad Aminxon, Abdullaxon, Qutlug‘ Murod, Said Muhammad Bahodirxon, Muhammad Rahimxon II haqida bevosita guvohi bo‘lgan voqealar, daliliy ma’lumotlar asosida yaratilgan. Ammo ularga tegishli malikalar haqidagi ma’lumotlar o‘ta qisqa bo‘lib, ayrim ishoralar bilan cheklangan.

Angliya adabiyotining mashhur asarlarida malika va qirolchalarning hayoti batafsil yoritilgan. Treysi Borman asarlarida ham malika va qirolchalar obrazi ijodiy individuallik bilan tasvirlangan.

*“So entirely did Anne embrace the French manners, language, and customs that the court poet, Lancelot de Carles, observed: She became so graceful that you would never have taken her for an Englishwoman, but for a French woman born.*

*Another contemporary remarked: “Besides singing like a syren, accompanying herself on the lute, she harped better than King David and handled cleverly both flute and rebec”. Anne was particularly admired for her exquisite taste and the elegance of her dress, earning her the praise of Pierre de Brantôme, a seasoned courtier, who noted that all the fashionable ladies at court tried to emulate her style, but that she possessed a “gracefulness that rivalled Venus”. She was, he concluded, “the fairest and most bewitching of all the lovely dames of the French court.”<sup>32</sup> (Anna fransuz odob-axloqini, tilini va urf-odatlarini shunday qabul qildiki, saroy shoiri Lancelot de Karlz shunday dedi: “U shunchalik nafis bo‘lib qoldiki, siz uni hech qachon ingliz ayoli deb bilmas edingiz, balki fransuz ayolida tug‘ilgan ayol uchun”. Yana bir zamonaviy mulohaza: “U sirena kabi qo‘shiq kuylashdan tashqari, leyta hamrohlik qilishdan tashqari, u shoh Dovuddan ham yaxshiroq arped edi va nayni ham, rebekni ham mohirona ijro etdi”. Tajribali saroy a‘zosi Per de Brantomning maqtovi, u suddagi barcha moda xonimlar uning uslubiga taqlid qilishga harakat qilishgan, ammo u “Venera bilan raqobatlashadigan nafislikka” ega. U Fransuz saroyining barcha go‘zal xonimlari orasida eng adolatli va eng jozibali edi).*

Treysi Borman asarlariga malika va qirolichalarning ta‘siri katta, chunki ular asarda millat va qirollik ramzi sifatida gavdanlangan<sup>33</sup>. Ular asarlarda o‘ziga xos shaxs timsoli sifatida namoyon bo‘lgan.

Gregori va Borman asarlarining har birida qudratli hokimiyat belgisi bo‘lgan qirollik siymolariga duch kelinadi. Qirolicha va malikalar hikoyadagi asosiy qahramonlar obrazida tasvirlangan. Ular kuch-qudrat va monarxiyaning mustahkam timsoliga aylangan.

Tadqiqotda ingliz adabiyotidagi malika va qirolichalarning millat va mamlakat timsoli sifatida o‘rganilgan. Asarlardagi qirolicha va malikalarni millat va qirollik timsoli sifatida tadqiq etish ilmiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega. Bu esa G‘arb romanlaridagi malikalarning tavsifi ayol yetakchiligiga xos bo‘lgan murakkabliklarni va qarama-qarshiliklarni aks ettiruvchi an‘analar uyg‘unligini taqdim etadi.

Bobning ikkinchi fasli “Umuminsoniy g‘oyalar va milliy ruhiyat talqini” deb nomlangan. Adabiyot insoniyat ma‘naviyatining ko‘zguisi sifatida inson ruhiyatini, jamiyat hayotini va abadiy qadriyatlarni ifodalaydi. Unda xalqning milliy ruhi bilan bir qatorda, butun insoniyat uchun umumiy bo‘lgan g‘oyalar mujassam bo‘ladi. Ayniqsa, tarixiy shaxslar — Bibixonim va Gavharshodbegim kabi siymolar obrazida milliy ruhiyat, ayol sha‘ni, sadoqat va vatanparvarlik umuminsoniy mazmun bilan uyg‘unlashadi.

Temuriy malikalar qatorida buyuk Amir Temur saroyining bosh malikasi Bibixonimning o‘rni mutlaqo o‘ziga xosdir. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Bibixonim zamonasining go‘zal, idrokli, tadbirkor, aql-zakovatda tengsiz malikasi bo‘lgan. U mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etgan. Bibixonim bunyodkorlik faoliyati tarixida malikalarga o‘rnak bo‘lar darajada shuhrat qozongan. P.Qodirov va Sh.Isaxonovalar Bibixonim

---

<sup>32</sup> Tracy B. Elizabethah’s Women. <https://www.penguinrandomhouse.com/books/16237/Elizabethahs-women-by-tracy-borman/> (murojaat sana:09.09.2024)

<sup>33</sup> Tracy B. Elizabethah’s Women. <https://www.penguinrandomhouse.com/books/16237/Elizabethahs-women-by-tracy-borman/> (murojaat sana:09.09.2024)

hamda Gavharshodbegim obrazini o'zbek ayoliga xos milliy ruhiyat — hayo, sadoqat, vafodorlik, go'zallikka intilish, oila va Vatanga muhabbati mujassam obrazlar sifatida tasvirlaydi.

Ma'rifat homiysi sifatida, tarix sahifasida o'z nomini muhrlagan temuriy malikalardan yana biri Gavharshodbegimdir. Abdurazzoq Samarqandiy o'zining "Matla' us-sa'dayin va "Majma' ul-bahrayn" asarida Gavharshodbegim nomini 41-o'rinda tilga oladi. Muallif uni tasvirlaganda turli ta'rif-tavsif, badiiy tashbihlarni keltiradi. Bir o'rinda og'oyi desa ikkinchi o'rinda "mahdi ulyo" (Podshohning katta xotiniga beriladigan unvon) deb ataydi. Gavharshodbegim tarixda bunyodkor malika sifatida nom qozongan. P.Qodirovning "Ona lochin vidosi" romanida Gavharshodbegim siymosi orqali adabiyotda ayol obrazining faqat oilaviy sadoqat emas, balki davlat va ma'naviyat taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. Bu esa milliy ruhiyat bilan umuminsoniy qadriyatlarning uyg'un ifodasini namoyon etgan.

Tarix sahifalarida o'z izini qoldirgan ayol shaxslar – Ingliz malikalari Elizabetta I va Viktoriya obrazlari bu jihatdan alohida o'rin tutadi. Ularning hayoti va siymosi nafaqat Angliya milliy ruhiyatining timsoli, balki butun insoniyat uchun ibrat bo'ladigan jasorat, mas'uliyat va adolat kabi umuminsoniy g'oyalarni ifoda etadi. Elizabet I Angliya tarixida "Oltin asr" davrini boshlab bergan shaxs sifatida tanilgan. Tarixiy asarlarda u dono, jasur va o'z xalqiga sadoqatli ayol sifatida gavdalanadi. Yozuvchi Filippa Gregori malika Elizabetta I ni xalqni himoya qiluvchi, o'z davrida erkak hukmdorlar bilan teng raqobatlashgan, lekin shu bilan birga ayolona muloyimlikni yo'qotmagan obraz sifatida tasvirlaydi.

Ingliz xalqining eng uzoq hukmronlik qilgan monarxlaridan biri Malika Viktoriya ilm-fan taraqqiyoti va madaniy uyg'onish avj olgan davrda hukmronlik qilgan. Viktoriya siymosi axloqiy poklik, oilaparvarlik va mehnatsevarlik timsoli sifatida tasvirlanadi. Ingliz adibi Deyzi Gudvin "Viktoriya" romanining qahramoni Viktoriyani ingliz xalqining xarakterini belgilovchi an'anaviy fazilatlar – tartib, mehnatsevarlik, axloqiy barqarorlik va vatanparvarlik xislatlari mujassamlashgan obraz sifatida yoritib bergan. Demak, o'zbek va ingliz tarixiy romanlarida malikalar obrazi milliy ruhiyatning timsoli bo'lish bilan birga, insoniyat qadriyatlari yuksakligining ramziga aylangan.

Uchinchi bobning uchinchi fasli "Malika obrazida milliy dunyoqarashning badiiy ifodasi" deb nomlangan. Tarixiy romanlarda milliy xarakterni yaratishda badiiy psixologizm o'tmishni jonlantirish va turli xalqlarning tarixi, madaniyati va milliy xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan kuchli vositadir. Bu bizning milliy xarakterlarimiz tarixiy voqealar ta'siri ostida shakllanganligini va o'z navbatida ularga ta'sir ko'rsatganligini ko'rishga imkon beradi. Shuning uchun badiiy psixologizmdan foydalanadigan tarixiy romanlar nafaqat o'yin-kulgi manbai, balki tarixiy ong va milliy o'ziga xoslikni shakllantirishning muhim vositasidir.

Tarixiy romanlarda milliy xarakterni yaratishda badiiy psixologizm muhim rol o'ynaydi. Bu mualliflarga qahramonlarning ichki dunyosini ochib berish va ularning milliy o'ziga xoslik bilan bog'liq xususiyatlarini etkazish imkonini beradi. Badiiy psixologizmdan foydalanish orqali o'quvchilar milliy xarakter va uning

tarixiy voqealarga ta'siri haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'ladilar, bu esa tarixiy romanlarni to'liqroq va mazmunli idrok etishga yordam beradi. Badiiy psixologizm adabiy asarlarning yanada jonli, realistik va milliy ruhga singib ketishiga imkon beradigan kuchli vositadir. Bu o'tmish va hozirgi zamon o'rtasida ko'prik o'rnatishga yordam beradi, bu esa o'quvchilarga voqeani qahramonlarning ko'zlari orqali ko'rish va milliy meros bilan bog'liqligini his qilish imkonini beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, badiiy psixologizm tarixiy kontekst va milliy xususiyatlarni sinchkovlik bilan o'rganishga asoslangan bo'lishi kerak. Tarixiy roman mualliflari milliy xarakterni ishonchli tarzda etkazish va jozibali personajlarni yaratish uchun madaniyat va urf-odatlariga sezgir bo'lishlari kerak.

Adabiyotdagi badiiy psixologizm o'quvchilarga milliy xarakter va tarixiy voqealar o'rtasidagi bog'liqlikni yaxshiroq tushunishga yordam berishda muhim rol o'ynaydi. Mualliflar qahramonlarning ichki dunyosini, ularning fikrlari, his-tuyg'ulari, odatlari va e'tiqodlarini tasvirlaganlarida, ular tarixiy voqealar va millatning madaniy xususiyatlari kontekstida qahramonlarning motivlari va harakatlari haqida chuqurroq tushuncha hosil qiladi. Qahramonlar ichki dunyosini tahlil qilish, o'quvchilar o'zlarining milliy xarakterlari ularning qarorlari, qarashlari va sodir bo'layotgan narsalarga bo'lgan munosabatiga qanday ta'sir qilishini ko'rishlari mumkin. P.Qodirovning tarixiy romanlari milliy adabiyotimizda muhim yangilik, tarix haqiqatiga sadoqat sifatida baholanishga loyiq. Adabiy tanqid va adabiyotshunosligimizda o'zbek nasrining yirik namoyandalaridan biri Pirimqul Qodirov ijodi muayyan darajada o'rganilgan<sup>34</sup>. Adib ijodi bir necha dissertatsiyalar uchun adabiy manba bo'lib xizmat qilgan<sup>35</sup>. Shuningdek, ayrim qomuslar va darsliklarda yozuvchining hayoti va ijodiga muayyan o'rin ajratilgan<sup>36</sup>.

O'zbek adabiyotida temuriylar davri haqida yozilgan asarlar ichida reallik xususiyatlari bilan Oybekning "Navoiy" romani e'tirof etilsa, P.Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" asarlari ushbu an'ananing o'ziga xos davomi sanaladi. Yozuvchining "Ona lochin vidosi" romani temuriylar saltanatining eng muhim hodisalari yuz bergan davri haqidagi asardir. Aynan shu asarda real tarixiy vaziyat va inson botinining mushtarak badiiy tahlili ko'zda tutilgan. Asarda ijodkor kitobxon e'tiborini, asosan, temuriyzodalarning ayollariga qaratadi. Romandagi sodir bo'layotgan voqealarning tub mohiyati ayollarning temuriylar saltanati vakillariga ma'naviy ta'sirlari nuqtayi nazaridan qarab badiiy tahlilga tortiladi. Asarning bosh qahramoni Gavharshodbegimning shodligu iztiroblari bayoni asosida boshqa temuriy malikalar obrazlari ham o'z tasvirini topgan.

Gavharshodbegim obrazi asardagi eng muhim badiiy g'oyani yo'naltiruvchi xususiyatlari bilan boshqa obrazlardan ajralib turadi. Chunki asardagi asosiy

---

<sup>34</sup> Шермухаммедов П. Пиримкул Қодиров (Адабий портрет). – Тошкент, 1983; Норматов У. Ҳаёт билан ҳамнафаслик. Изланиш қувончи ва ташвишлари. Етуклик (Мақолалар). – Тошкент, 1982; Носиров Ў. Образларда услуб жиловлари. – Тошкент, 1991; Каримова Й. Эрк жозибаси. – Жиззах, 2004.

<sup>35</sup> Бобоева Н. Пиримкул Қодировнинг характер яратиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1972; Миркасимова М. Жанрово-стилевие особенности узбекского романа 70-80 годов (романи А.Якубова и Пиримкул Қадирова): Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1986; Жалматова З. Урбанистик асарларда муштараклик ва ўзига хослик (Пиримкул Қодиров "Олмос камар" романининг қиёсий таҳлили мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999; Каримова Ю. Пиримкул Қодиров киссаларида маънавий ахлоқий муаммоларнинг бадий талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005.

<sup>36</sup> O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Ko'p jildlik. 11-jild. – Toshkent, 2005. – B.39-40; XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999. – B.424-439.

voqealar, ya'ni temuriylar saltanati osmonidagi qora bulutlar to'planishi bilan bog'liq voqealar bilan boshlangan ushbu asarda Gavharshodbegim taqdiri markazda turadi. Adib tomonidan Gavharshodbegim obrazi chuqur muhitni yoritilishi bilan yaratiladi. Asar Gavharshodbegimning Amir Temur tomonidan kenja o'g'li Shohruhga munosib ko'rib tanlab olgani hodisalari davridan boshlab, uning fojiali o'limiga qadar hayotining iztiroblari temuriyzodalarning toj-taxt uchun birodarkushlik urushlari barobarida yoritib beriladi. Yozuvchi "Ona lochin vidosi" romanida Gavharshodbegim siymosini tarixiy haqiqatga tayangan holda yangicha talqin qilgan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Tarixiy romanlarda badiiy psixologizm muammosi**" deb nomlangan va uning birinchi faslida "Malika xarakterini yaratishda badiiy psixologizmning o'rni" namoyon etilgan.

Badiiy psixologizm asarning janr aniqlovchisi sifatida belgilanishi, uning asarda qo'llanilish darajasidan kelib chiqadi. Masalan, buyuk rus yozuvchisi F.M.Dostoyevskiy romanlari adabiyotshunos M.M.Baxtinning "Dostoyevskiy poetikasi muammolari" monografiyasida polifonik romanlar sifatida ilmiy talqin va tahlil qilib berilmaguncha psixologik romanlar sifatida baholanardi<sup>37</sup>. Shu bilan birga, nemis ruhshunos olimi Z.Freydning "Ruhiy tahlil"<sup>38</sup> ta'limoti F.M.Dostoyevskiy badiiy uslublaridan bo'lmish "ruhiy tahlil"ga mos keladi.

Badiiy adabiyotda psixologik tahlil yozuvchi mahoratini ochib berishga xizmat qiluvchi, imkoniyati keng yo'nalish sifatida namoyon bo'lgani uchun ham adabiyotshunoslar tomonidan ko'p o'rganilmoqda, muhim ilmiy ahamiyatga molik, muayyan metodologik asosni tashkil etuvchi nazariy tadqiqotlar yaratilmoqda. Badiiy psixologizm muammolariga bo'lgan qiziqish bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas, ilmiy tadqiqotlar psixologizmning yangidan yangi imkoniyatlarini kashf etmoqda. A.Esin "psixologizm tushunchasini "badiiy adabiyot vositalari ko'magida qahramon ichki olamini: uning fikrlari, kechinmalari, istaklari, emotsional holatlari va boshqalarni tasvirlash, tasvirlaganda ham to'la va teranligi bilan ajralib turadigan holda ko'rsatish", shuningdek, "qahramonlar ichki olamini to'la, chuqur va batafsil ochishga qaratilgan vosita va usullar tizimi, uslubiy yaxlitlik" sifatida ta'riflaydi<sup>39</sup>. Inson qalbi sirlari, ong va ong osti badiiy talqini muammolari hamisha dunyo olimlarining diqqat markazida bo'lgan.

Ingliz yozuvchisi Filippa Gregorining "Bokiraning muhabbati" asari badiiy psixologizmning yorqin namunasi. Muallif qirolichaning ichki dunyosi, hissiy to'qnashuvlari va intilishlarini chuqur o'rganadi. Gregori metaforadan foydalangan holda, Elizabettaning ko'p qatlamli va chuqur o'rganilgan psixologik portretini yaratadi. Romandan keltirilgan misolda *Being near Mary's throne – Merining taxtiga yaqin bo'lish dor tagida turish* metaforasi taxt, hokimiyatga yaqinlik o'limga yaqinlikni anglatadi. Bular o'rtasida konseptual bog'lanish bor, malika va ayol roli o'rtasida muvozanatni saqlashi kerak, bu esa uning dunyodagi o'rni haqida chuqur fikr yuritishga olib keladi. Shuningdek, metaforada qirolicha Elizabettaning siyosiy zaifligi ko'rsatilib, Meri hukmronligi davridagi repressiv

<sup>37</sup> Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Худ. литер., 1972. – С.144. <https://topuch.ru/problemi-poetiki-dostoevskogo/index.html>. (murojaat sana:17.11.2024).

<sup>38</sup> Фрейд З. Введение в психоанализ. В 4-х т. – Т.4. – М., 2000. – С. 512.

<sup>39</sup> Бобохонов М. Психологизм ва унинг адабиётшуносликка оид тушунчалар системасида тутган ўрни // Ўзбекистонда хорижий тиллар.Илмий-методик электрон журнал [www.journal.fledu.uz](http://www.journal.fledu.uz). –2018. – №1. – Б.192-195.

muhitni ham aks ettirgan. Taxt va dorga oid konseptual uyg'unlik Elizabettaning o'sha paytdagi nozik vaziyatini ko'rsatadi va hokimiyatning ikki tomonlama tabiatiga e'tibor qaratadi — bu hokimiyat egasiga buyruq berish imkoniyatini bersa-da, unga yaqin bo'lganlarga xavf tug'diradi.

4.1.1-jadval

Manba domeni (Dor)	Maqsad domeni (Taxt)
Qatl va o'lim bilan bog'liq	Qirollik hokimiyati va kuch bilan bog'liq
Xavf va qo'rquvni anglatadi	E'tibordan chetlatilish xavfini ifodalaydi
Nazorat yoki imkoniyat yo'qligini bildiradi	Elizabettaning saroydagi beqaror mavqeyini aks ettiradi
Qat'iylik va qaytarib bo'lmaslikni anglatadi	Saroy qarorlari hayot-mamot masalasiga aylanishi mumkinligini ko'rsatadi

Roman nafaqat tarixiy shaxs obrazini, balki uning kechinmalarini murakkab olamiga kirib borish imkonini beradi, bu esa psixologik nasrga salmoqli hissa qo'shadi.

Bobning ikkinchi fasli "Badiiy-psixologik talqinda shaxs va jamiyat munosabatlari ifodasi" deb nomlangan bo'lib unda shaxs va jamiyat munosabatlari ingliz va o'zbek yozuvchilarining asarlari misolida tahlil qilingan. Deyzi Gudvinning Viktoriya romanida qirolicha Viktoriyaning o'rni beqiyosdir. U kuchli yetakchi va ma'rifatli obraz sifatidan gavdalanadi. Romanda uning fe'l-atvori chuqur o'rganib chiqiladi va uni yosh ayoldan o'z pozitsiyasidagi qiyinchiliklarni qat'iyat va matonat bilan hal qiladigan dahshatli monarxga aylanishi tasvirlanadi. Roman boshida Viktoriya sodda, ammo ruhiy ta'sirchan o'smir sifatida tasvirlangan, unga ko'p jihatdan uning nazoratchi onasi, Kent gersogi va uning maslahatchilari ta'sir ko'rsatgan. Amakisi qirol Vilyam IV ning to'satdan o'limi, uni atigi 18 yoshida qirolicha sifatida diqqat markaziga tortadi. Bu kutilmagan yuksalish uni beqaror ahvolga solib qo'yadi, chunki u tezda o'z shaxsiy istaklarini qirollik burchlari talablari bilan muvozanatlashni o'rganishi kerak. Dastlabki boblar uning hokimiyat cheklovlari bilan kurashini ko'rsatadi, bu yerda u umid va erkinlik istagini ham his qiladi. Asarda asosiy mavzular mustaqillik uchun kurash, sevgi va burchning murakkabliklari, shaxsiy istaklar bilan ijtimoiy mas'uliyat muvozanatini o'z ichiga oladi. Viktoriyaning bo'lajak turmush o'rtog'i shahzoda Albert bilan bo'lgan munosabati ham romanning markazida bo'lib, ularning chuqur hissiy aloqasini va uning hukmronligiga ta'sirini tasvirlaydi. Viktoriyaning Albert bilan aloqasi chuqurlashgani sayin, u nafaqat hissiy qo'llab-quvvatlovchi, balki hukmdor sifatidagi imkoniyatlarini kengaytiradigan hamkorlikni kashf etadi. Ularning intellektual aloqasi va umumiy qadriyatlarini uning qat'iyatini kuchaytiradi va unga yangi ishonch bilan qaror qabul qilishga imkon beradi. Albert yaxshi ittifoqchi bo'lib, unga hukumat va jamiyat hayotining murakkabliklarida harakat qilishda yordam beradi. Umuman olganda, yozuvchi romanda Viktoriya xarakterining yorqin tasvirini, uning samarali boshqaruvga bo'lgan qat'iyatini va o'z davrining tarixiy kontekstini tasvirlaydi.

Yozuvchi asarning badiiy-estetik quvvatini oshirishda peyzajdan samarali foydalangan. "A shaft of dawn light fell on the crack in the corner of the ceiling. Yesterday it had looked like a pair of spectacles, but overnight a spider had embroidered the fissure, filling in the gaps, so that now it looked, she thought, like a crown. Not the crown that her uncle wore, which had looked heavy and

uncomfortable, but the sort that a queen might wear—lacy, delicate, but still strong.” (*Shift burchagidagi yoriqqa tong shafaqining milyasi tushdi. Kecha bu ko‘zoynakga o‘xshar edi, lekin bir kechada o‘rgimchak yoriqni kashta qilib, bo‘shliqlarni to‘ldirdi, shunda endi u tojga o‘xshardi. Amakisi kiygan, og‘ir va noqulay ko‘rinadigan toj emas, balki malika kiyishi mumkin bo‘lgan toj - dantelli, nozik, ammo baribir kuchli*)<sup>40</sup>. Badiiy asarda tabiat tasviri qahramonlar taqdiridagi dramatismni chuqurlashtiradi yoki ularning ruhlariga kuch baxsh etadi.

Gudvin asarida interyer tasvir muhim g‘oyaviy-kompozitsion vazifani o‘taydi. “When she opened her eyes, Victoria saw a faint sliver of light coming through the shutters. She could hear her mother breathing in the big bed on the other side of the room. But not for much longer. Soon, Victoria thought, she would have her own bedroom. Soon she would be able to walk down the stairs without holding Lehzen’s hand; soon she would be able to do whatever she pleased. She had celebrated her eighteenth birthday last month, so when the moment came, she would reign alone.” (*Viktoriya ko‘zlarini ochganda, deraza panjalaridan xira yorug‘lik tushayotganini ilg‘adi. Xonaning narigi tomonidagi katta karavotdan onasining nafas olishi eshitilardi. Biroq bu uzoqqa cho‘zilmasligini u bilardi. Tez orada o‘zining alohida xonasi bo‘lishini Viktoriya xayolidan o‘tkazdi. Yaqin orada u Lezenning qo‘lidan ushlamasdan zinapoyadan tusha oladigan hamda xohlagan ishini qila oladigan bo‘ladi. U o‘tgan oyda o‘n sakkiz yoshga to‘lgan, vaqti-soati kelganda yakka o‘zi hukmronlik qilishiga ishonchi komil edi*). Demak yozuvchi joy, maskan, tabiat tasviri orqali romanning umumiy g‘oyaviy mazmunini hamda obrazlarni konkretlashtirishga, ularga tabiiylik, jonlilik, xaqqoniylik baxsh etishga sabab bo‘lishini ifodalaydi.

O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini”<sup>41</sup> romanida yoritilgan Gavharshodbegim siymosi M.Shayxzoda yaratgan siymoga hamohangdir, chunki ikkala ijodkor ham bir xil tarixiy manbalarga tayanganlar. Ma‘lumki, Gavharshodbegim Shohruh Mirzo hukmronligi davrida hokimiyat rishtalarini o‘z qolida tutishga intilgan, boshqaruv ishlariga aralashib, ayrim hollarda noto‘g‘ri hukmlar chiqargan, masalan, sayidlarni qatl qildirib, hukmdor obro‘sigga putur yetkazgan, shahzodalar orasiga nizo tushirgan, o‘z o‘g‘li Mirzo Ulug‘bekni “shohi sharir” (buzuqi shoh) deb e‘lon qilgan. Bu manbalarda malikaning davlat ishlarida amalga oshirgan xatti-harakatlarining bayoni keltirilgan, davr taqozosi va bunday asarlarning yaratilish an‘analariga ko‘ra, mualliflar malikaning bunday xatti-harakatlarining asl sabablari, maqsadlarini har vaqt ham ko‘rsatib o‘tmaganlar, ularga o‘z munosabatlarini ochiq tarzda bildirmaganlar. Ammo bu ma‘lumotlar yuqorida gap borayotgan tarixiy-badiiy asarlar uchun asos bo‘lar ekan, ularning mualliflari, har biri o‘ziga xos tarzda, shunday bayon uslubi va shunday badiiy tasvir vositalarini qo‘llaganlarki, ular tarixiy voqealar bilan uyg‘unlashib, kitobxon ko‘z o‘ngida XV asr temuriylar davri tarixi bilan aloqador shaxslarning obrazini tabiiy va haqqoniy tarzda yaratishga zamin bo‘lgan.

Gavharshodbegim hayoti va shaxsini yoritishga murojaat qilgan tarixchi-olimlardan biri Poyon Ravshanov badiiy ijodda ham tarixiy shaxslar siymosini

<sup>40</sup> Goodwin D. Victoria. – London: Thorndike Press, 2016. – P. 95. ISBN 1410495876, 9781410495877.

<sup>41</sup> Ёкубов О. Улуғбек хазинаси. Роман. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 26.

